Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(Impact Factor) 9.573/2026
ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Google Scholar
doi® digital object identifier
Academic Resource Index ResearchBib
Crossref
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

2/2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg‘un G‘AFUROV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa’d DAMANHURIY – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 26-oktyabrdagi 03-07/8377-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:

Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Shahzod Islamov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:

Zarifjon Arslonov

Dizayner:

Zarifjon G‘ulomov

«**MOTURIDIYLIK**» jurnali **O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiya**sining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 11-uy.
E-mail:info@maturidijournal.org
Web-sahifa:maturidijournal.org
Telefonlar:(+99855) 515-98-98

МУНДАРИЖА

ISLOMSHUNOSLIK

Muzaffar KAMILOV
Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan talablar 4

Otabek MUHAMMADIYEV
Dorul hadis – hadis markazlari faoliyati tahlili 15

Mekhrojiddin AMONOV
Zarafshon vohasidagi tariqat murshidlari: o‘zaro munosabat va tahlil 26

Hamida ILHOMOVA
Abu Hanifa shaxsiyati va ilmiy merosining o‘rganilishi 34

ISLOM HUQUQI

Nargiza KHALKHODJAEVA
Islomda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallarning tarbiyaviy ahamiyati 41

Rakhshona KENJABOYEVA
Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida faqihlarning vaqf nazariyasi: fiqhiy bahslar va ularning huquqiy ahamiyati 47

DINSHUNOSLIK

Rustamjon BOZOROV
«Tablig‘ jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillari va milliy xavfsizlikka ta’siri 57

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

Shahzod ISLAMOV, Olovkhon NEMATOV
Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari VIII–XII asrlar Samarqand ilmiy muhiti haqidagi nodir manba 64

Doston MUSTAFOYEV
Tarjumon al-Qur’on – Qur’on lug‘ati ma’nolariga oid xalqchil risola 80

FILOLOGIYA

Nodirabegim SAIDOVA
Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish (oliy ta’lim muassasalari tajribasi misolida) 86

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-2/8

Shahzod ISLAMOV[a]
[a]*Doctor of Philosophy in History*
Deputy Director of the Imam Maturidi International Scientific Research Center
11A. Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: ijodiy@gmail.com

Olovkhon NEMATOV[b]
[b]*Research Fellow of the Imam Bukhari International Scientific Research Center*
Khodja Ismoil town, Poyariq District, Samarqand, 141306, Uzbekistan
E-mail: alauddinxan@gmail.com

ABU HAFS NASAFIYNING «AL-QAND FI ZIKRI ULAMOI SAMARQAND» ASARI VIII–XII ASRLAR SAMARQAND ILMIY MUHITI HAQIDAGI NODIR MANBA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘rta asrlar islom ilm-fani rivojida Movarounnahr ilmiy maktablari, xususan, Samarqandning roli, mazkur ilmiy maktablarning Abbosiylar xalifaligidagi ilmiy markazlari bilan madaniy aloqalari ilmiy tahlil qilingan. Bu boradagi savollarga ilmiy asoslangan va haqqoniy javob topishda yordam beradigan manba – bu shubhasiz Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» kitobidir. Abu Hafs Nasafiyning ushbu asari Samarqandda VIII–XII asrlarda shakllangan ilmiy maktablar tarixini o‘rganish, ularda faoliyat yuritgan olimlar haqida ma’lumot olishda tayanch manba hisoblanadi.*

Bugungi kunda ba’zi salafiylar Movarounnahr hududi Abbosiylar xalifaligining sharqiy chegarasi bo‘lgani sababli, bu hudud vahiy nozil qilingan hudud – Hijozdan olis ekanini, din va sunnatning asl manbaidan uzoqligini da’vo qiladi. Ular, bunday iddao orqali bu joyda sof islom ta’limoti qaror topmagan degan g‘oyani ilgari suradilar.

Kalit so‘zlar: *Samarqand, Abu Hafs Nasafiy, al-Qand, ilmiy muhit, ilmiy maktab, hadis ilmi, muhaddis, ulamo, Movarounnahr, biografik manba.*

THE WORK “AL-QAND FI DHIKR ULAMA SAMARQAND” BY ABU HAFS AL-NASAFI IS A VALUABLE PRIMARY SOURCE ON THE INTELLECTUAL ATMOSPHERE OF SAMARKAND FROM THE 8th TO THE 12th CENTURY

Abstract. *This article provides a scholarly analysis of the role of the scholarly schools of Transoxiana, particularly Samarkand, in the development of Islamic scholarship during the Middle Ages, as well as the cultural and intellectual ties between these scholarly schools and the major centers of learning in the Abbasid Caliphate. An indisputably important source that can help provide well-founded and reliable answers to questions in this field is the work al-Qand fi Dhikr ‘Ulama’i Samarqand by Abu Hafs al-Nasafi. This work serves as a fundamental source for studying the history of the scholarly schools that developed in Samarkand between the eighth and twelfth centuries and for obtaining information about the scholars who were active within them.*

Today, some Salafis argue that, because Transoxiana constituted the eastern frontier of the Abbasid Caliphate, the region was geographically distant from the Hijaz, the land where revelation was received, and was therefore remote from the original sources of religion and the Sunnah. Through such claims, they promote the idea that authentic Islamic teachings did not become firmly established in this region.

Keywords: *Samarkand, Abu Hafs al-Nasafi, al-Qand, scholarly milieu, scholarly school, Hadith studies, muhaddith, scholars, Transoxiana, biographical source.*

KIRISH

Qadimdan Markaziy Osiyoning yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan Samarqandga VIII asrning boshlarida islom dini bilan birga hadislar kirib kela boshladi. Mahalliy muhaddislar faoliyati natijasida bu shaharda o‘ziga xos mustaqil maktab shakllandi. Islom madaniyatiga yirik muhaddislarni yetkazib bergan Samarqand maktabi faoliyati XIII asr boshlariga qadar kuzatiladi. Bu maktab o‘z taraqqiyoti davomida paydo bo‘lish, mahalliy madaniyat bilan kirishish va mo‘g‘ullar davriga kelib so‘nish bosqichlarini bosib o‘tdi.

ASOSIY QISM

«Kitob al-qand» va «Kitob al-ansob» kabi manbalar bergan ma’lumotlarga ko‘ra, VIII–XII asrlarda Movarounnahrda 3000 dan ortiq ko‘zga ko‘ringan muhaddis yashab, faoliyat yuritgan. Ulardan 1000 dan ortig‘i Samarqandda, 600 dan ortig‘i Buxoroda yashagan bo‘lsa, shundan 400 dan ortig‘ining hayoti va faoliyati Nasaf shahri bilan bog‘liq edi. Qolgan 1000 muhaddisdan 70 dan ortig‘i Shoshda, 60 dan ortig‘i Farg‘onada, yana shunchasi Keshda, 50 dan ortig‘i Termizda, 40 dan ortig‘i Xorazmda, shu bilan birga Usrushana, Dabusiya, Kushoniya va boshqa mahalliy mintaqalarda faoliyat olib borgan (Rahimjonov, 2020:12).

Samarqand hadis maktabida kechgan jarayonlarni o‘zida to‘la aks ettirgan deyarli yagona manba Abu Hafs Nasafiyning (vaf. 1142-y.) «Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» asaridir.

Ma’lumki, Samarqand Movarounnahr miqyosida yirik va yetakchi ilmiy markazlardan biri bo‘lib kelgan. Islom dini kelganidan so‘ng bu shahar ilg‘or musulmon ilmi markaziga aylandi. Bu yerda boshqa ilmlar bilan bir qatorda hadis ilmi ham rivojlandi. Bu shaharda ko‘p sonli yirik muhaddislar faoliyat olib bordilar. Jumladan, Abu Muqotil Samarqandiy (vaf. 823-y.), Abu Muhammad Dorimiy Samarqandiy (vaf. 869-y.), Abu Sa’d Idrisiy (vaf. 1015-y.), Abu Hafs Nasafiy (vaf. 1142-y.) kabi yirik olimlar hadis ilmini rivojlantirdilar.

Samarqandga hadislar ilk davrda kirib kelishi arab qo‘shinlarining shaharga kirishi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik sohaning rivojlanishiga musulmon dunyosi markaziy mintaqalari olimlarining, ayniqsa, Xuroson ilmiy markazlarining ta’siri katta bo‘ldi. Ular Samarqandda mahalliy hadis ilmi an’analarining IX asrda keng rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar (Rahimjonov, 2020:96).

Abu Hafs Nasafiy «al-Qand» asarini yozishining bosh maqsadlaridan biri – bu Samarqandning islom ilm-fani rivojida tutgan o‘rnini ko‘rsatib berish, uning sha’nini ulug‘lash, bu yerda yashab ijod qilgan olimlar haqidagi ma’lumotlarni jamlash bo‘lgan. Tarixchi va geograflar hamda bu shaharni ziyorat qilgan ulamolar Samarqand haqida ko‘plab ijobiy fikrlarni aytganlar. Jumladan, Yoqut Hamaviy (XII–XIII asrlar) o‘zining «Mu’jam al-buldon» asarida «Yer yuzida Samarqanddan ko‘ra obod, xushmanzara va go‘zal shahar yo‘qdir», deya qayd etgan (Hamaviy, 1995:III, 246–250).

Mashhur tarixchi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Maqdisiy (X asr) esa Samarqandni shunday ta’riflaydi:«Samarqand barcha iqlimlarning yuragi, sharafli, qadim, go‘zal va nafis shahardir» (Maqdisiy, 1991:260).

Zahiriddin Muhammad Bobur (XV–XVI asrlar) «Boburnoma» kitobida Samarqand ta’rifi xususida to‘xtalib:«Yer yuzining aholi yashaydigan qismida Samarqandchalik latif shahar kamroqdir. Shahrini (poytaxtini) Samarqand, viloyatini Movarounnahr deydilar. Hech dushman qahr va g‘alaba bilan egallay olmagani uchun «baldai mahfuza», ya’ni «himoyalangan shahar» deydilar. Elining barchasi sunniy, pokmazhab va shariatga amal qiluvchi, diyonatli eldir. Hazrati Rasuli Akram zamonlaridan beri Movarounnahrda shunchalik ko‘p islom imomlari yetishib chiqqanlarki, boshqa viloyatlarning birortasida bunchalik ko‘p imom kuzatilmagan» (Bobur, 2008:55).

Abu Hafs Nasafiy zaif yoki mavzu bo‘lsa-da, Samarqandni ulug‘laydigan bir qancha rivoyatlarni keltiradi. Xususan, Ziyod ibn Solih haqidagi rivoyatda quyidagini yozadi:«Hajjoj ibn Yusuf Qutayba ibn Muslimga quyidagi mazmunda maktub yubordi:

Ammo ba’d. Ushbu maktubim senga yetib borganida, qo‘shiningga bosh bo‘lib, Omulning tinchini buz, Nasafning kulini ko‘kka sovur, Kisni ag‘dar-to‘ntar qil, Shoshdagi hayotni izdan chiqarib yubor, Farg‘ona aholisini qirib tashla va Samarqandni o‘zingga qal’a qilib ol. Chunki otam Abdulloh ibn Busrdan rivoyat qilib, uning bunday deb aytganini eshitganman:«Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning:«Jayhun deb ataladigan daryoning narigi tarafida Samarqand deb nomlangan bir shahar bor. U (Alloh taolo tarafidan) himoyaga olingandir. O‘sha shaharning erkaklari, ayollari, hatto bolalari ham uning himoyasiga bel bog‘lab turadi», deb aytayotganlarini eshitdim» (Nasafiy, 1991:64, 169).

Solih ibn Abu Jobir Karobisiy haqidagi ma’lumotda esa Ibn Uyaynaning «Jayhun (Amudaryo) ortidagi yerlarda bir oqshom to‘shak ustida tunab qolish men uchun mabrur hajning yuztasidan ko‘ra yaxshiroqdir»,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

deb aytayotganini eshitdim», degan rivoyatini naql qiladi (Nasafiy, 1991:131).

Rufay ibn Mehron tarjimai holida Said ibn Janoh Buxoriyning «Kitob al-qibla» asaridagi quyidagi iqtibosni keltiradi:«Samarqand ahli va u yerda qo‘nim topgan kishilarning izzatini joyiga qo‘ying. U yerda Qusam ibn Abbos, Said ibn Usmon ibn Affon, tobeinlardan Muhammad ibn Vosi’, Anas ibn Molikning ozod qilgan quli Burd ibn Sinon, Zahhok ibn Muzohim, Lays ibn Abu Sulaym, Anas ibn Molikning hadislarini rivoyat qiluvchi Ziyod ibn Mehron, Xulayd ibn Hasson, Abu Oliya va boshqalar qo‘nim topgan» (Nasafiy, 1991:50). Ma’lum bo‘ladiki, Abu Hafs Nasafiy Samarqand shahrining sha’ni va ulug‘ligini bu yerda dafn etilgan ulug‘ sahobiylar, tobeinlar va boshqa ulamolar bilan bevosita bog‘laydi.

Usmon Oydinli Somoniylar davrida Samarqand olimlarining ilmiy mavqei haqida to‘xtalib, ular butun islom olamiga tanilgani va «Movarounnahr ulamolari» nomi bilan mashhur bo‘lganini ta’kidlaydi. Bu olimlar Somoniylar davlatida rasmiy islom vakillariga aylangan. Hatto ularning qarashlari butun islom dunyosida muhokama qilinadigan va yuzaga kelgan masalalarda namuna sifatida qabul qilinadigan darajaga yetgan (Aydınlı, 2001:365).

Ta’kidlash kerakki, ushbu tadqiqotda «al-Qand» asari hadisshunoslik fani nuqtai nazaridan, jarh va ta’dil prinsiplari asosida tadqiq etilmagan, hadislarning darajalari, roviylar sanadiga ko‘ra chuqur tahlil qilinmagan, balki asosiy e’tibor «al-Qand» kitobining o‘rta asrlar Samarqand ilmiy muhitini yoritishdagi rolini o‘rganishga qaratildi.

Samarqand hadis, fiqh va kalom ilmlari rivojlangan islom madaniyati markazlaridan biri bo‘lgan. Bu yerga talabalar nafaqat Samarqanddan, balki atrofdagi hududlardan, hatto ancha uzoq mamlakatlardan ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni o‘rganish uchun kelganlar.

VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahr va Samarqandda ko‘plab masjidlar va ilmiy izlanishlar uchun madrasaga o‘xshash maxsus binolar qurila boshlandi. Dastlab bu inshootlar arab voliylari tomonidan bunyod etilgan bo‘lsa, mintaqada islom mustahkam o‘rnashishi bilan ko‘proq mahalliy aholi va Somoniylar kabi mahalliy sulolalar tomonidan barpo etila boshlandi. Bu maskanlarda talabalarga ta’lim berilar, ilmiy munozaralar qizg‘in kechar, hatto masjidlar olim va tinglovchilar bilan to‘lib toshar edi (al-Nasafi, 1991:495–496).

Islomning ilk asrlaridan boshlab jome masjidlari va mahalliy masjidlar nafaqat namoz o‘qiladigan joy, balki ko‘plab muhim masalalar muhokama qilinib, hal etiladigan, ilmiy izlanishlar jonli tarzda olib boriladigan maskanlar bo‘lgan. Shuningdek, Samarqandda joylashgan jome masjidlar hamda mahalla masjidlari ham islomiy ilmlar, xususan, hadis ilmi o‘qitiladigan va ilmiy munozaralar tashkil etiladigan ilm markazlariga aylangan.

Samarqand jomelari va masjidlarida xizmat qiluvchi imom yoki muazzinlarning ko‘pchiligi ilm bilan shug‘ullanuvchi kishilar bo‘lgan. Uylari o‘zlari xizmat qilayotgan jome yoki masjidning yonida bo‘lgan olimlarning masjidlaridagi ilmiy faoliyatlar yanada jonli kechgan.

Manbalarda Samarqand jomelari va masjidlarida tashkil etilgan ilmiy majlislarda boshqa shaharlardan kelgan olimlar bilan qizg‘in munozaralar o‘tkazilgani, hatto ularning ba’zilari imtihondan o‘tkazilgani haqida so‘z boradi. Bu holat shaharda ulamolarning ko‘pligini, jome va masjidlardagi ilmiy faoliyatlar nechog‘li jonli kechganini yaqqol ko‘rsatadi. Masalan, Imom Buxoriy Samarqandga ilmiy maqsadda qilgan safarlarining birida imtihon qilingan. Shaharda hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi 400 ga yaqin olim tomonidan sanadlari bir-biriga aralashtirib yuborilgan minglab hadislarni birma-bir ajratib, to‘g‘risini bayon qilib berishi so‘ralgan. U matnlari bilan birga sanadlari chalkashtirib yuborilgan hadislarning barchasini bir-biridan ajratib berib, Samarqand ulamolarining tahsiniga sazovor bo‘lgan (al-Dhahabi, 1985:XII, 411).

Jome va masjidlar bilan bir qatorda, X asrdan boshlab Samarqandda faqat ilmiy maqsadlar uchun madrasalar qurila boshlandi. Odatda XI–XII asrlarda yozilgan ba’zi asarlarda Samarqandda bir qator muhim madrasalar mavjudligi tilga olinadi. Qachon qurilgani aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, bu madrasalarning ba’zilari biz o‘rganayotgan davr ichida – hech bo‘lmaganda X asrda mavjud bo‘lganini taxmin qilish mumkin. Katta ehtimol bilan Somoniylar tomonidan qurdirilgan Ra’su Sikkatu Hayti Hayyon madrasasi shulardan biri edi (al-Sam‘oni, 1998:III, 199). Somoniy amirlaridan Muzaffar ibn Ahmad ibn Nasr ibn Ahmadning Samarqandda ilm ahli, xususan, hadis ahli uchun ayvon ko‘rinishidagi bir madrasa qurdirganini ham bilamiz (Ibn Asokir, 1995:LII, 251).

Somoniylar davrida qurilgani taxmin qilingan madrasalar orasida Dor al-juzjoniya madrasasi ham bor. Bu madrasada, avvalo, fiqh ilmi bo‘yicha dars berilgan (al-Qurashi, 1993:I, 185). Shahardagi yana bir madrasa bu Ra’su Sikkatu Amur madrasasi bo‘lgan. Bu madrasada ham hadis ilmi boshchiligida ko‘plab sohalarda ilmiy halqalar mavjud edi (al-Sam‘oni, 1998:II, 348).

Qusam ibn Abbos (r.a.) nomi bilan atalgan Qusam madrasasi ham Samarqandda ilmiy faoliyatlar jadal olib

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

borilgan muhim markazlardan biri bo‘lgan (al- Sam‘oni, 1998:V, 73; al-Qurashi, 1993:III, 318).

Samarqandda ilmiy halqalar va munozaralar eng jonli kechadigan joylardan yana biri Somoniy sultonlari va voliylarining saroyi edi. Somoniy hukmdorlari ilm ahliga katta ahamiyat berganlari va ularga nisbatan yuksak ehtirom ko‘rsatganlari uchun saroylari eshigini ular uchun ochib qo‘ygan edilar. Shu bois, ma’lum kunlarda olimlar Somoniylar saroyida to‘planishar, sulton o‘rtaga biror masalani tashlar va barcha olimlar o‘sha mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirib, jonli va qizg‘in munozara muhitini yuzaga keltirar edilar (al-Muqaddasi, 1906:264).

Tadqiqotchi D.Rahimjonov o‘z tadqiqotida VIII–XII asrlarda Samarqandda hadis ilmining yirik markazlari sifatida faoliyat yuritgan 10 ta masjid, madrasa va xonadonlar nomlarini qayd etadi (Rahimjonov, 2020:172).

«Kitob al-qand» asari muallifining to‘liq ismi Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil ibn Muhammad ibn Luqmon Nasafiy Samarqandiydir. U fiqhda hanafiy, aqidada moturidiylik mazhabida bo‘lgan. Kunyasi Abu Hafs, ilm ahli orasidagi sharafli unvoni Najmiddin (Sam’oniy, 1975:I, 527; Hamaviy, 1993:V, 2098; Suyutiy, 1976:88) bo‘lgan. 1068–1069 yillar oralig‘ida Movarounnahr diyorida joylashgan yirik shaharlardan biri Nasafda tug‘ilgan. So‘ng Samarqandga kelib istiqomat qilgan. Musulmon arab geograflari Jayhun va Sayhun – Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan hududlarni Movarounnahr deb atagan (Sam’oniy, 1975:I, 527; Hamaviy, 1993:V, 2098; Suyutiy, 1976:88). Manbalarda uning Nasaf shahrida o‘tgan bolalik va o‘spirinlik yillari, musulmon yurtlari bo‘ylab amalga oshirgan ilmiy safarlari va yurishlari haqida biron bir ma’lumot uchramaydi. Ehtimol, uning ilk safari Nasafdan Samarqandga kelish bo‘lgan. Chunonchi, uning o‘zi «al-Qand» asarida Umar ibn Muhammad Votkatiyning tarjimai holini yozish asnosida ilm talab qilish uchun Buxoro shahriga borganiga ishora qilib quyidagilarni yozgan:«U Samarqandga ko‘p marta kelgan. Buxoroda ilm o‘rganib yurgan vaqtimiz u biz bilan birga edi. U ham bizga qo‘shilib, u yerning mashoyixlaridan ilm eshitgan edi».

Imom Nasafiy 1112-yil haj qilish uchun safar qilar ekan, Bag‘dod shahriga ham tashrif buyurgan va u yerda ulamolardan ilm o‘rgangan. O‘zining «Tatvil al-asfor li tahsil al-axbor» kitobidan odamlarga hadis aytgan (Dovudiy, n.d.:II, 7). Imom Zahabiy o‘sha safar haqida so‘z yuritib:«Yigitlik chog‘ida Bag‘dodda ayrim shayxlardan hadis eshitgan», (Zahabiy, 1985a:XX, 126), degan. So‘ng haj amallarini ado qilish uchun Makkai mukarramaga jo‘nab ketgan (Ibn Najjor, 1996:XI, 674; Asqaloniy, 1971:IV, 327).

U Nasaf, Samarqand, Buxoro, Bag‘dod, Makka ulamolaridan iborat ko‘plab ustozlar qo‘lida ta’lim olgan. Imom Nasafiy o‘zi yozgan «Taaddud ash-shuyux li Umar mustatraf ala-l-huruf mustatar» (Qurashiy, 1993:II, 660) nomli asarida bayon qilishicha, uning ustozlari 550 nafarni tashkil etgan (Zahabiy, 2003:XI, 674; Asqaloniy, 1971:IV, 327). Abu Ali Hasan ibn Abdulmalik Nasafiy, Ismoil ibn Muhammad Nuhiy Nasafiy, Xoharzoda, Mahdiy ibn Muhammad Alaviy, Abdulloh ibn Ali ibn Iso Nasafiy, Abu Yusr Muhammad ibn Muhammad Nasafiy, Husayn Qoshg‘ariy, Abu Muhammad Hasan ibn Ahmad Samarqandiy, Abu Ali Hasan ibn Abdulmalik Moturidiy, Abu Fazl Abdulqodir ibn Abdulxoliq ibn Abdurahmon ibn Qosim ibn Fazl Navqadiy, Abu Muso Imron ibn Abdulloh Nuriy Hofiz Buxoriy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Ahmad Qantariy kabi allomalar shular jumlasidandir.

Uning ko‘p sonli shogirdlari islom olamining atoqli olimlari bo‘lib yetishgan. Muhammad ibn Ibrohim Turbushtiy, farzandi Abu Lays Ahmad ibn Umar, Umar ibn Muhammad ibn Umar Uqayliy, Abu Sa’d Abdulkarim Sam’oniy va Burhonuddin Marg‘inoniy kabi mashhur olimlar Imom Nasafiyning shogirdlaridir. Imom Nasafiy 1142-yil Samarqandda vafot etgan (Sam’oniy, 1975:I, 527; Suyutiy, 1976:88; Qurashiy, 1993:II, 658).

Imom Nasafiy qomusiy olim bo‘lib, tafsir, hadis, aqida singari turli ilmlarga doir 100 dan oshiq asar yozgan (Zahabiy, 1985b:II, 452; Ibn Mustavfiy, 1980:II, 593). Uning «al-Aqoid an-nasafiya» asari nafaqat moturidiylar, balki ash’ariylar o‘rtasida ham shuhrat qozongan. Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniyning (vaf. 804-y.) hanafiy fiqhiga doir «al-Jomi’ as-sag‘ir» kitobini nazmga solgan. Shuningdek, «Tatvil al-asfor li tahsil al-axbor», «Tilba at-talaba», «Xasois al-lug‘at», «Zallat al-qoriy», «Bayon mazohib al-mutasavvifa», «al-Xasois», «al-Manzuma an-nafisa fi-l-xilofiyot», «an-Najoh fi sharh Axbor as-sihoh», «at-Taysir fi-t-tafsir», «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» va boshqa ko‘plab asarlar ham yozgan. U «an-Najoh fi sharh Axbor as-sihoh» kitobining kirish qismida o‘zining ustozlar silsilasi – sanadini bayon qilar ekan:«Bular «Sahihi Buxoriy» kitobining sanadiga doir ellikta yo‘ldir, ularning hammasini shayxlarimdan olganman», deb yozgan. Marokashlik Muso ibn Abdulloh G‘umotiy ilm talab qilib 1122-yilda Imom Nasafiyning huzuriga kelganida, u unga atab «Ujolat an-Naxshabiy li zayfihi al-mag‘ribiy» nomli kitobni yozgan. Uning ichiga ko‘plab masalalarni to‘plagan, marokashlik shogirdini maqtab she’rlar yozgan (Hamaviy, 1993:V, 2098).

Abu Hafs Nasafiy «al-Qand» asarida VIII–XII asrlarda faoliyat olib borgan 1010 nafar ulamoning

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

tarjimai holini keltirgan. Kitobga, asosan, Samarqand shahri bilan bog‘liq bo‘lgan, jumladan, ushbu shaharda tug‘ilgan, yashagan, faoliyat olib borgan, vafot etgan yoki qaysidir jihatdan shahar ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatgan ulamolarning nomlari kiritilgan. Ammo asarda Samarqand shahridan tashqari Dabusiya, Kushoniya, Kesh hamda Nasaf kabi shahar va qishloqlar bilan bog‘liq ulamolarning tarjimai hollari ham ko‘plab uchraydi.

Tadqiqotning yana bir ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Abu Hafs Nasafiy Samarqand hududiy chegarasi deganda unga qaysi hududlarni kiritgani o‘rganilgan. Ma’lumki, «al-Qand» asarida nafaqat Samarqand shahriga aloqador ulamolar, balki So‘g‘d viloyatidagi qishloqlar, kichik shaharlar, jumladan Nasaf, Keshga tegishli bo‘lgan ulamolar ham o‘rin olgan.

Muqaddasiy (X asr) o‘zining «Ahsan al-taqosim fi ma’rifat al-aqolim» kitobida Samarqandni So‘g‘dning poytaxti sifatida keltiradi hamda Nasaf va Keshni So‘g‘dning tarkibiga kiritish masalasi bahsli ekanini ta’kidlaydi. Muqaddasiyning yozishicha, Jayhoniy o‘z kitobida Nasaf va Keshni So‘g‘dning tarkibiga qo‘shgan (Al-Muqaddasi, 1994:269). Istaxriyning (X asr) ma’lumotiga ko‘ra, ba’zilar Nasaf va Keshni So‘g‘d tarkibi kiritgan. Lekin Istaxriy o‘z kitobida bu shaharlarni So‘g‘d tarkibiga kiritmagan (Istarxiy, 2019:156). Ibn Havqal (X asr) esa Nasaf va Keshni So‘g‘dning tarkibi kiritish mumkinligini aytgan (Ibn Havqal, 2011:30).

Abu Hafs Nasafiy o‘z kitobida Samarqand chegarasi tashqarisidan bo‘lgan muhaddisning tarjimai holi haqida yozar ekan, albatta, uning Samarqandga qanday aloqasi borligi haqida ma’lumot beradi. Masalan, Samarqandga kelib joylashgani, to‘xtab o‘tgani va hokazo. Biroq Abu Hafs Nasafiy Samarqand hududi ulamosi deb hisoblagan muhaddislar haqida so‘z yuritganda, uning shaharga aloqasi haqida to‘xtalmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kimdan hadis eshitgani haqida ma’lumot berishga o‘tgan. Xususan, Nasaf, Kesh va Kasbi haqida so‘z yuritganda, yuqoridagi uslubga amal qilganini ko‘rish mumkin. Bundan Abu Hafs Nasafiy Samarqand nomi ostida o‘sha davrdagi So‘g‘di Samarqand geografik hududini nazarda tutgan degan xulosa kelish mumkin.

Abu Hafs Nasafiy Buxoro shahrini «So‘g‘di Samarqand» tarkibiga kiritmagan. Buxorolik muhaddislar haqida ma’lumot berar ekan, ularning Samarqandga kirgani, chiqqani va qanday maqsadda shaharda bo‘lgani haqida alohida to‘xtaladi. Abu Solih Shu’ayb ibn Lays Kog‘aziyning tarjimai holini keltirar ekan, samarqandlik va buxorolik roviylarni bir-biridan ajratib ko‘rsatadi (Nasafiy, 1991:123–124).

«Al-Qand» asari Samarqand bilan Movarounnahrning boshqa shaharlari, Xuroson mintaqasi, arab diyorlaridagi ilmiy markazlar o‘rtasida kechgan ilmiy-madaniy aloqalarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Chunki Abu Hafs Nasafiy samarqandlik muhaddislarning Movarounnahr va Xuroson hududidan chiqib, Iroq, Shom, Hijoz singari xalifalikning boshqa mintaqalarida hadis rivoyat qilishlari samarqandlik muhaddislarning Samarqand ilmiy maktabi an’analarini boshqa o‘lkalarga tarqatishdagi rolini ilmiy asoslab beradi. Masalan, Abu Hafs Nasafiy «al-Qand»da rivoyat qilishicha, Abu Muhammad Abdulloh ibn Ahmad Hofiz Samarqandiy (vaf. 1124-y.) Bag‘dodda yashab hadis ilmi bilan shug‘ullangan (Süleymaniye qo‘lyozmasi, № 70:71a).

Shu bilan birga, Abu Hafs Nasafiy Samarqand madaniy muhitining xalifalikdagi boshqa ilmiy markazlar bilan o‘zaro aloqalari, ulamolar o‘rtasidagi muloqot va bahslarning mintaqada yuksak ilmiy muhit shakllanishidagi o‘rnini ko‘plab misollar vositasida tahlil etadi. Xususan, muallif Solih ibn Muhammad ibn Amr ibn Habib (Solih Jazara) shaxsiga to‘xtalar ekan, uning hadis hifzi, ma’rifat va ilmiy mahorat borasida o‘z davrining nodir shaxsiyatlaridan bo‘lganini alohida qayd etadi. Asarda Buxoro hokimi amir Xolid ibn Ahmad Zuhliyning ilm-fanga homiylik ko‘rsatib, Solih Jazarani Bag‘doddan taklif etgani hamda uning ilmiy faoliyati orqali Movarounnahrdagi ma’naviy hayotni yuksaltirgani bayon qilinadi. Shuningdek, muallif Abu Nasr Xaluf ibn Ahmad ibn Xalaf ibn Hafs ibn Said Balxiy, Xulayd ibn Hasson Basriy, Sulaymon ibn Tarif Shomiy kabi muhaddislarning Samarqandga kelgani va bu yerdagi hadis ilmi maktabiga ta’sir o‘tkazgani haqida qaydlar qoldirgan.

Abdulloh ibn Xolid Buxoriy haqidagi ma’lumotda quyidagicha keltiradi:«Samarqandda istiqomat qilgan. Abu Sa’d uning sanadi bilan Samarqanddagi Usoma ibn Muhammad ibn Lays Kindiy Buxoriydan, u Solih ibn Hamdon Buxoriydan, u Xolid ibn Omir Tavovisiydan, u Abdulloh ibn Xoliddan naql qilib shunday deganini aytib berdi:«Bu shaharga Xorija (ibn Mus’ab)ning hadislari ichidan menga yetmagan bir hadisni deb keldim, xolos. Chunki, menga aytishlaricha, Abu Muqotil Samarqandiy uni rivoyat qilib yurar ekan. Men uning oldiga kelib, o‘sha hadisni eshitdim va shu yerda qolib ketdim».

Ushbu misollar Samarqandning hadis ilmi markazi sifatidagi maqomini ko‘rsatish bilan birga, xalifalikning boshqa madaniy markazlari o‘rtasida ilmiy almashinuv jarayoni o‘ta faol kechganini isbotlaydi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Shuningdek, «al-Qand»dagi ma'lumotlar Movarounnahrda islomning tarqalishiga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi. Jumladan, Abu Muoz ibn Sulaymon Balxiy haqidagi xabarda Abu Hafs Nasafiy X asr boshlarida Abu Muoz va Abdulaziz ibn Xolidning qo'lida Shosh va Farg'onadan mingga yaqin odam islomni qabul qilgani haqida yozadi. Ma'lum bo'ladiki, arab fotihlarining Movarounnahrda islomni yoyish harakati mintaqaning barcha hududida birdek muvaffaqiyatli kechmagan. Farg'ona vodiysi va Shosh kabi shimoli-sharqiy hudud aholisi qilich yordamida emas, balki islom da'vatchilari ta'sirida bu dinni qabul qilgan.

Asarni tadqiq etishning yana bir muhim jihati uning Samarqand shahri toponimikasiga oid tarixiy ma'lumotlarni taqdim etishi bilan bog'liq. «Al-Qand» Samarqand tarixi, uning ko'chalari, masjidlari, rabotlari, mahallalari, qishloqlari, qabristonlari, ziyoratgohlari, hatto daryo va tog'lari haqida qimmatli ma'lumot beruvchi manba hisoblanadi. Xususan, «al-Qand» asarida Samarqandning «ichki shahar» (shahriston), Xitoy darvozasi, Ibn Nakron ko'chasi, shuningdek, «Astobdiza» mahallasi hamda «Sikidara», «Isto», «Kasodan» kabi qishloq nomlari qayd etilgan. Garchi ushbu nomlarning aksariyati bugungi kungacha saqlanib qolmagan bo'lsa-da, ular shahar tarixini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

«Al-Qand» kitobi «Chokardiza» qabristonining joylashuvi, u yerda dafn etilgan buyuk olimlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Abu Hafs Nasafiy o'z ustozi Abu Sa'd Idrisiyning Samarqandda vafot etib, «Chokardiza» qabristonining «Tall as'hob al-hadis» («Hadis ahli tepaligi») qismida dafn etilganini ma'lumot tariqasida keltiradi (Nasafiy, 1991:240). Abu Toyyib Tohir Xuvoqandiyning tarjimai holida uning «Chokardiza» qabristonidagi «Mashhad as-sodot» – sayyidlar mashhadining ro'parasida dafn qilingani haqida ma'lumot beradi (Nasafiy, 1991:165). Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, «Chokardiza» qabristonida sayyid, muhaddislar, muftiylar va boshqa toifa ulamolar dafn etilgan maxsus qismlari bo'lgan.

Abu Hafs Nasafiy o'z asarida Abu Solih Savra ibn Hujr Muqriy Samarqandiy, Imom Abu Sulaymon Dovud ibn Abdulloh ibn Shahid ibn Yahyo ibn Zakariyo G'anjaraki Sakkok, Abulfath Solih ibn Muhammad So'fiy Muqriy Muaddib Roziy, imom Abu Ali Soid ibn Nasr ibn Ahmad ibn Shoh ibn Ali ibn Husayn ibn Shibl ibn Nusayr Nusayriy Nasafiy, Abu Toyyib Tohir ibn Muhammad ibn Ja'far ibn Nasr ibn Usmon ibn Said ibn Abdulloh ibn Abdumannon ibn Abdurahmon ibn Xolid ibn Valid Xuvoqandiy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurahmon ibn Bahrom ibn Abdusamad Dorimiy Hofiz Samarqandiy kabi muhaddislarning Chokardizaga dafn etilganini yozadi.

Imom Zahabiy uni «muhaddis alloma» (Zahabiy, 1985a:XX, 126) deb tavsiflagan. Sam'oniy:«Imom, faqih, fozil, mazhab va adabiyot bilimdoni. Fiqh va hadis borasida asarlar bitgan. «Al-Jomi' as-sag'ir»ni nazmga solgan» (Sam'oniy, 1975:I, 527), degan fikrlarni yozgan. Abulmaoliy ibn Moza Buxoriy Hanafiy unga:«Shayx, imom, zohid» (Ibn Moza, 2004:III, 5), Muhiddin Hanafiy:«Imom, zohid, Najmiddin, Abu Hafs» (Qurashiy, 1993:I, 394) degan sifatlarni bergan.

«Al-Qand» asarining nomi manbalarda turlicha zikr qilingan. Masalan, Sam'oniy, Zahabiy va Suyutiy «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» (Sam'oniy, 1962:VIII, 246; Zahabiy, 2003:XI, 675; Suyutiy, 1976:88), Ibn Hajar Asqaloniy va Hamaviy «Al-qand fi ulamoi Samarqand» (Asqaloniy, 1971:IV, 327; Hamaviy, 1993:VII, 3434), Ibn Najjor «al-Qand fi tarixi Samarqand» (Ibn Najjor, 1996:XX, 99), Ibn Imod Hanbaliy «al-Qand fi huffozi Samarqand» (Ibn Imod Hanbaliy, 1986:V, 79), Xatib Bag'dodiy va Muhiddin Hanafiy «al-Qand fi tarixi Samarqand» (Xatib Bag'dodiy, 1997:XX, 99) nomi bilan tilga olgan.

Bir qator olim va tadqiqotchilar fikricha, asarning asl nomi «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» ekani haqiqatga yaqindir. Buning bir qancha asoslari mavjud. Birinchidan, Imom Nasafiyning eng yaqin zamondoshi va shogirdi bo'lgan Sam'oniy «al-Qand»ni shunday nom bilan ham tilga olgan. Ikkinchidan, Imom Nasafiyning o'zi kitobning ba'zi o'rinlarida ayrim muhaddislar nomini tilga olar ekan, «ذِكْرُ» «zikru» lafzini qo'llagan. Masalan, Xalil ibn Amr va Xashshuyah ibn Muhammadning (Süleymaniye qo'lyozmasi, № 70:6a), Abdulaziz Duraybiy, uning o'g'illari va nabiralari hamda ismi «Abdu» bilan boshlanadigan bir guruh ulamolarning (Süleymaniye qo'lyozmasi, № 70:99b) tarjimai holini bayon qilish asnosida aynan shu so'zni ishlatgan. Uchinchidan, kitob nomidagi «qand» so'zi barchamizga ma'lum shirinlik ma'nosida bo'lib, uni aqliy faoliyat bilan bog'liq «ma'rifat» (tanimoq, bilmoq) bilan qo'llashdan ko'ra tilning amali bo'lmish «zikr» (bayon qilish) so'zi bilan ishlatish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Imom Nasafiy «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asarini qachon yozgani ma'lum emas. Shunda bo'lsa-da, ulamolar muallif uni hayotining so'nggi yillarida yozgan, degan fikrni ilgari surgan. Bunga dalil sifatida Abu Muhammad Abdulaziz ibn Abdulaziz Mozaning tarjimai holida yozgan ushbu satrlarni keltirgan:«Uning o'g'li shayx, ulug' imom Hisomiddin Umar ibn Abdulaziz Buxorodan qaytganidan so'ng 536-yil (milodiy 1142) rabiul avval

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

oyining yigirma yettinchisi, payshanba kuni asr vaqtida Samarqanddagi Vazor dashtida vafot etgan». YA'ni, u Imom Nasafiydan bir yil oldin vafot etgan.

Afsuski, bugun «al-Qand» asarining to'liq nusxasi mavjud emas. Kitobning hajmi juda katta bo'lgan. Chunki uning topilmayotgan qismi hozirda mavjud qismidan ko'proqdir, degan fikrlar bor. Darhaqiqat, «xo»dan tortib, «kof»gacha bo'lgan harflardan boshqalari bilan boshlanadigan ismlar keltirilgan boblar, shuningdek, kitobning kirish qismi hanuz topilmagan. Muallif o'z asarining kirish qismiga ishora qilib:«Uning hadisi kitobning boshida, Samarqandning fazilati haqidagi qismida aytib o'tildi» (Samarqandiy, Parij № 6284:22b), degani buning dalilidir.

Yana bir kuchli ehtimol shuki, ismi «alif» harfi bilan boshlanadigan roviylar haqidagi bobning bir qismi ham yo'qolgan. Chunki biograf olimlar o'z asarlarida «al-Qand»ga nisbat berib zikr qilgan ismlarning ba'zilari mavjud nusxalarda uchramaydi. Bunga misol tariqasida Sam'oniy «al-Ansob» asarida Ismoil ibn Abdusodiq Niyoziyning tarjimai holini yozayotib, «al-Qand»ga nisbat berganidir (Sam'oniy, 1962:XIII, 230). Vaholanki, Imom Nasafiyning asarida bu ism zikr qilinmagan. Bu esa asarning hajmi mavjud nusxasiga qaraganda bir necha barobar kattaroq ekanidan dalolat beradi. Bundan tashqari, uning yigirma jilddan iborat bir asar bo'lgani haqidagi fikrlar ham bor (Laknaviy, 1906:150; Bag'dodiy, 1951:I, 387; Zirikliy, 1992:V, 60).

Ma'lumki, har qanday asar kirish qismi bilan boshlanadi. Mualliflarning maqsadi turlicha bo'lganiga qaramay, ko'pincha, kirish qismi asarning mag'zini qamrab olgan bo'ladi. Jumladan, «al-Qand» asarining ham kirish qismi bo'lgan. Afsuski, u bizgacha yetib kelmagan. Bu bir qator javobsiz savollarni paydo qiladi:kirish qismida nimalar yozilgan? Muallif asarni yozishda qanday uslubdan foydalangan?

Manbalarga nazar soladigan bo'lsak, Imom Nasafiy bu asarini to'liq yozib tugallagani ma'lum bo'ladi. Zero, biron bir manbada uning tugallanmagan asar bo'lgani aytilmagan. Asar to'liq yozib tugatilganiga dalil shuki, uning bugun bizda mavjud qismlarida muallif alifbo tartibiga ko'ra uning oxirgi qismlarida tarjimai holi bayon qilingan o'rinlarga ishora qilib o'tgan. Masalan, Abu Said Shoh Muhammad ibn Ja'far ibn Habibning tarjimai holida «Xudo xohlasa, (uning tarjimai holi) «mim» harfi bobida, ismi Muhammad bilan boshlanadigan roviylar qatorida bayon qilinadi» (Nasafiy, 1991:127), deb yozadi.

Imom Nasafiyning «al-Qand» asari ulamolar va ularning asarlari, shayxlar va shogirdlarining tarjimai hollari bayon qilingani e'tiboridan biografik, shayxlar va ular tomonidan rivoyat qilingan hadislar keltirilgani jihatidan hadisga doir asarlar turkumiga kiradi. Darhaqiqat, Imom Nasafiy yashagan davr ilm-fanning turli yo'nalishlari, xususan, hadis va unga taalluqli ilmlar gullab yashnagan, e'tiborli muhaddislar va ustozlar faoliyat yuritgan, hadis va hadis ilmiga doir asarlar yozish avjiga chiqqan yillarga to'g'ri kelgan.

«Al-Qand» asarining xususiyatlaridan bir shuki, unda bugungi kunga qadar yetib kelmagan manbalardan iqtiboslar va naqllar keltirilgan, qadimgi geografik manbalarda nomi kelmagan mintaqalar va shaharlarning nomlari aytib o'tilgan, biografik manbalarda yoritilmagan shaxslarning tarjimai hollari bayon qilingan.

Imom Nasafiy «al-Qand»ni yozishda foydalangan manbalarga to'xtaladigan bo'lsak, ba'zi o'rinlarda ularning ismi aniq aytib o'tilgan bo'lsa, ko'p hollarda ochiq tilga olinmagan. Shunday bo'lsa-da, ularga murojaat qilinganiga ishoralar bor. Imom Nasafiy o'z asarida foydalangan va ismini tilga olib o'tgan asarlar quyidagilardan iborat:

1. Tarix al-Buxoriy. YA'ni, Imom Buxoriyning «at-Tarix al-kabir» asari. Imom Nasafiy Zahhok ibn Muzohim va Abd ibn Humayd Keshiyning tarjimai holini yozish asnosida undan iqtibos keltirgan.

2. Tarix Sallomiy. Abu Ali Husayn ibn Ahmad ibn Muhammad Sallomiy Bayhaqiy qalamiga mansub ushbu asar bizgacha yetib kelmagan. Imom Nasafiy Abu Muzaffar Rofe' ibn Lays, Abu Usmon Said ibn Usmon, Said Harashiy, Abu Muhammad Talhatu Talahot, Abdulloh ibn Abbosning ozod qilgan quli Ikrima va Abu Hafs Qutayba ibn Muslim Bohiliyning tarjimai holini yozish asnosida undan iqtibos keltirgan.

3. Kitob al-qibla. Said ibn Janoh Buxoriy tomonidan yozilgan. Imom Nasafiy Xulayd ibn Hasson Basriy, Rufay ibn Mehron va Ziyod ibn Mehronning tarjimai holini yozish asnosida undan iqtibos keltirgan. Imom Nasafiy uni Samarqandga kelib yashagan yoki kirib o'tgan olimlar qatorida zikr qilgan. Said ibn Janohning mazkur nomdagi asari borligi haqida ma'lumotlar mavjud emas. Ibn Funduq o'zining «Tarix Bayhaq» asarida unga nisbat bergan «Tarix Buxoro va Samarqand» nomli kitob Imom Nasafiy tilga olgan «Kitob al-qibla» asari bo'lsa ajab emas.

4. Tarix Ibn Manda Asbahoniy. Muallif uni shayx Abu Hasan Ali ibn Ahmad ibn Nasr Ishtixoniyning tarjimai holini yozish asnosida tilga olib o'tgan. Mazkur nomdagi asar turli manbalarda bir necha olimlarga nisbat beriladi. Kattoniy yozishicha, biograf olimlar orasida uni Abu Zakariyo Yahyo ibn Abdulvahhob ibn Manda, Abu Abdulloh Muhammad ibn Yahyo ibn Manda, Abu Qosim Abdurahmon ibn Muhammad ibn Is'hoq ibn Mandaga nisbat berganlar bor. Katta

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ehtimol bilan mazkur shaxslardan har birining tarix yo‘nalishidagi shunday asari bo‘lgan. Hatto Imom Nasafiy «al-Qand»ning ikki joyida – shayx Abu Hasan Ali ibn Abdurahmon ibn Yusuf Nasafiy va shayx Abu Hasan Ali ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiyning tarjimai holini yozayotib, Abu Abdulloh Muhammad ibn Yahyo ibn Mandadan naql qilgan.

5. Tabaqot as-sufiya. Muallifi shayx Abu Abdurahmon Sulamiy. Tasavvuf ulamolaridan. Imom Nasafiy Abu Turob Naxshabiyning tarjimai holini yozishda undan iqtibos keltirgan.

Imom Nasafiy o‘z asarida ismlarini tilga olgan, ammo asarlari nomini aniq aytmagan manbalarga kelsak, ular ko‘pchilikni tashkil qiladi. Quyida ulardan ayrimlari keltirilgan:

1. Imom Hofiz Idrisiy. Abu Sa’d Abdurahmon ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Idris Istirobodiy. Imom Nasafiy yozishicha, u Samarqandda yashagan va shu yerda vafot etgan. Qabri «Chokardiza» qabristonining «as’hob al-hadis» tepaligida joylashgan. U «al-Kamol fi ma’rifat ar-rijol min ulamo Samarqand» va boshqa ko‘plab asarlar yozgan. O‘z davrida unga teng keladigan olim bo‘lmagan. Imom Nasafiyning kitobi Idrisiyning asari bilan nechog‘li aloqadorligini shundan bilib olish mumkinki, Hoji Xalifa «al-Qand»ga Idrisiy qalamiga mansub «Tarix Samarqand»ga ilova sifatida qaragan. Imom Nasafiy Idrisiyning «Tarix Istrabod» singari boshqa asarlaridan ham foydalangan bo‘lishi ehtimoli yo‘q emas. Ayniqsa, «al-Qand»da ismi kelgan astrobodlik olimlarning tarjimai holi bilan bog‘liq o‘rinlarda bu yaqqol ko‘rinadi.

Hofiz Idrisiyning barcha asarlari bugunga qadar yetib kelmagan. Uning «Tarix Samarqand» nomli asari esa undan keyingi biograf olimlar keng ko‘lamda foydalangan qimmatli manbalardan sanaladi. YA’ni, u ham Bag‘dodiyning «Tarix», Sam’oniyning «Ansob», Zahabiyning «Tarix al-islom» asarlari singari o‘ta ahamiyatli manbalar sirasiga kiradi.

2. Hofiz Mustag‘firiy. Abu Abbos Ja’far ibn Muhammad ibn Mu’taz. Imom Nasafiy «al-Qand»ning juda ko‘p o‘rinlarida undan iqtiboslar keltirgan. Mustag‘firiy ko‘plab asarlar yozgan. Ularning eng asosiysi «al-Qand» asari bilan bir yo‘nalishda yozilgan «Tarix Samarqand»dir. Uning «Tarix Nasaf», «Tarix Kis» nomli boshqa asarlari ham bo‘lgan. Imom Nasafiy uning «Fazoil al-Qur’on» nomli asaridan ham foydalangan bo‘lishi mumkin.

3. Hofiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Sulaymon G‘unjor movarounnahrlik muhaddis bo‘lib, u «Tarix Buxoro» nomli asar yozgan. Imom Nasafiy mazkur kitobning nomini tilga olmagan bo‘lsa-da, undan juda ko‘p iqtiboslar keltirgan. «Tarix Buxoro» ham bugunga qadar yetib kelmagan asarlar sirasiga kiradi. Xatib Bag‘dodiy, Ibn Bashkuvol, Sam’oniy, Zahabiy, Ibn Hajar singari olimlar o‘z asarlarida undan foydalanganlar.

4. Hofiz Dorimiy. Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurahmon ibn Bahrom Samarqandiy nafaqat Samarqand, balki Xuroson va Movarounnahrda keng tanilgan muhaddis bo‘lgani uchun Imom Nasafiy undan juda ko‘p rivoyatlar keltirgan. Ismi «ayn» harfi bilan boshlanadigan roviylar bobida esa uning tarjimai holini batafsil bayon qilgan.

5. Abu Iso Muhammad ibn Iso Imom Termiziy. Imom Nasafiy uning «as-Sunan», «ash-Shamoil» va «Al-ilal al-kabir» asarlarida kelgan hadislarni rivoyat qilib keltirgan. Ammo ularning nomlarini tilga olmagan.

6. Imom Buxoriy. Imom Nasafiy uning «al-Adab al-mufrad» asaridan uning nomini tilga olmagan holda rivoyatlar keltirgan. Ammo «al-Jomi’ as-sahih», «al-Qiroat xalfa-l-imom», «at-Tarix al-avsat» singari boshqa asarlariga kelsak, Imom Nasafiy ularning nomini ham tilga olmagan bo‘lsa-da, ulardan ko‘plab hadislarni rivoyat qilgan.

7. Imom Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit. Imom Nasafiy yigirma beshdan ko‘p o‘rinda undan rivoyat keltirgan. Ularning aksariyati Abu Nuaym, Ibn Xusrav, Saymariy va Horisiy singari olimlar tomonidan taxrij qilingan, ya’ni sanadi va manbasi bayon qilingan.

Imom Nasafiyning sanadi – ustozlar silsilasi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, u 550 nafar shayxdan ilm o‘rgangan yoki hadis eshitganiga ko‘ra, uning sanadi ham xilma-xil va ko‘pchilikni tashkil etadi. Quyida Imom Nasafiy eng ko‘p rivoyat qilgan ustozlarining sanadini keltirib o‘tamiz:

1. Hofiz Idrisiy. «Al-Qand» asarida eng ko‘p takrorlangan sanad quyidagidir:«Imom Nasafiy shunday deydi:«Shayx, Imom Abu Hafs Umar ibn Ahmad Shabibiy Dizakiy bizga Abu Hafs Umar ibn Ahmad Shohiniy Forisiydan, u hofiz Abu Sa’d Abdurahmon ibn Muhammad Idrisiydan naql qilib, ushbu xabarni aytib berdi».

Imom Nasafiy ba’zan Idrisiyning sifati yoki laqabi yo nasabidagi ismlarni qisqartirib tilga olgan. Ko‘pincha «axbarona» – «bizga xabar qildi», ba’zan «haddasana» – «bizga hadis aytib berdi» iboralaridan foydalangan. Ba’zan sanadni qisqartirib, «Abu Sa’d Idrisiy o‘zining sanadi bilan» yoki «Abu Sa’d o‘zining sanadi bilan», «Idrisiy o‘zining sanadi bilan» degan iboralarni ishlatgan.

2. Muallif Hasan Nasafiy vositachiligida Mustag‘firiydan naql qilgan hadislar sanadi quyidagicha:«Shayx, qozi, imom, hofiz Abu Ali Hasan ibn Abdulmalik ibn Husayn Nasafiy bizga shayx, buyuk imom hofiz Abu

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Abbos Ja’far ibn Muhammad ibn Mu’taz Mustag‘firiy Nasafiydan xabar qilib bunday dedi».

3. Imom Nasafiyning keyingi sanadi Abu Muhammad Abdulloh ibn Ahmad Nofila orqali davom etgan. U shunday deydi:«Bobom shayx, Imom Abu Bakr Muhammad ibn Abdulloh Najjor bizga hofiz Abu Muhammad Abdulloh ibn Ali Bohiliy Madiniy Samarqandiydan naql qilib bunday xabar berdi». Muallif sanadni qisqartirib, «Bohiliy o‘zining sanadi bilan» yoki «Najjor o‘zining sanadi bilan», degan jumlalarni ishlatadi.

4. Imom Nasafiyning keyingi sanadi Hasan Qosimiy vositasida Mustag‘firiydan bo‘lgan. U shunday deydi:«Shayx hofiz Abu Muhammad Hasan ibn Qosimiy Kuvajmisaniy bizga shayx hofiz Abu Abbos Ja’far ibn Muhammad Nasafiydan naql qilib bunday xabar berdi».

5. Imom Nasafiyning sanadlaridan yana biri quyidagicha:«U shunday deydi:«Shayx hofiz Abu Ali Hasan ibn Abdulmalik ibn Husayn Nasafiy rahimahulloh bizga Hokim Abu Muhammad Ja’far ibn Muhammad Kasbaviydan, u Iso ibn Husayn Kasbaviydan naql qilib bunday xabar berdi».

6. Imom Nasafiyning yana bir sanadi quyidagicha:«Shayx, imom, zohid Abu Hafs Umar ibn Abu Bakr Qurro rahimahulloh bizga Abdulloh ibn Abu Bakr G‘oziy Kadakiydan naql qilib bunday xabar berdi».

7. Imom Nasafiyning «al-Qand» asarida eng ko‘p tilga olingan sanadlardan biri quyidagidir:«Shayx, Imom Abu Hafs Umar ibn Ahmad Shabibiy rahimahulloh bizga Imom Abu Ahmad Ismoil ibn Ahmad ibn Muhammad Dizakiydan, u Imom Abu Abbos Fazl ibn Abbos Sag‘oniydan naql qilib bunday xabar berdi».

8. Imom Nasafiyning sanadida otasi Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Nasafiyning borligi uning qanday ilmiy muhitda kamol topganini ko‘rsatib beradi. U shunday deydi:«Otam shayx, faqih Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil Nasafiy bizga hofiz Abu Nasr Ahmad ibn Ja’fardan, u hofiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Sulaymondan naql qilib, ushbu xabarni aytib berdi».

Asarda tarjimai holi berilgan shaxslarni quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Ulamolar. Masalan, Xoharzoda nomi bilan mashhur qozi, Imom Ubaydulloh ibn Imom Abu Bakr Muhammad ibn Husayn ibn Muhammad ibn Husayn Qadidiy Buxoriy haqida yozar ekan, Samarqandga ko‘p marta kelganini ta’kidlagan (Nasafiy, 1991:332).

2. Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu sulolasiga mansub shaxslar. Masalan, Abdulloh ibn Qoid ibn Uqayl Axsikassiy haqida quyidagilarni yozgan:«Sayyid, olim Abdulloh ibn Qoid ibn Uqayl ibn Husayn ibn Ahmad ibn Ali ibn Ahmad ibn Ibrohim ibn Muhammad ibn Hamza ibn Ubaydulloh ibn Husayn ibn Ali ibn Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhum Axsikassiy. Haj safarida mening hamrohim bo‘lgan. Men bilan birga Iroq va Hijoz mashoyixlaridan ilm va hadis eshitgan. 461/1069 yil jumodul uvlo oyining o‘ninchisi, shanba kuni Axsikasda tug‘ilgan. 515/1121 yildan so‘ng Samarqandda vafot etgan» (Nasafiy, 1991:222–223).

3. Movarounnahr diyoridagi ayrim hukmdorlar. Samarqandga arablarning kirishidan to X asrga qadar xabar rivoyat qilish siyosiy rahbarlar orasida ko‘p uchraydi (Rahimjonov, 2020:94). Abu Hafs Nasafiy va uning shogirdi Muhammad ibn Abduljalil Samarqandiy Somoniy podshohlarini muhaddislar qatorida zikr etadilar. Jumladan, Muhammad ibn Abduljalil o‘zining «Muntaxab» asarida amir Ahmad ibn Asadning to‘rt o‘g‘li – Nasr, Is’hoq, Ya’qub va Ismoillarni muhaddislar qatorida sanaydi.

Ta’kidlash kerakki, ilk davrda Samarqandda faoliyat olib borgan mashhur shaxslardan naql qilgan roviylar asosan siyosiy rahbarlar edi. Masalan, Qutaybaning nabirasi Said ibn Salm ibn Qutayba Bohiliydan Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad Zuhliy hadis rivoyat qilgan.

Shuningdek, Buxoro voliysi Abu Haysam Xolid ibn Ahmad Zuhliy, Movarounnahr voliysi Dovud ibn Nobijur, Samarqand voliylari Abu Muzaffar Rofe’ ibn Lays, Sayf ibn Kasir, Savra ibn Abjar kabilarning tarjimai holi bunga misoldir.

4. Movarounnahrdagi ma’muriy idoralar xodimlari. Masalan, Umar ibn Mojid Kotib Samarqandiy haqida yozar ekan, u Movarounnahr voliysi amir Nasr ibn Ahmad Somoniyning kotibi lavozimija ishlaganini aytgan (Nasafiy, 1991:335–336).

5. Diniy arboblar. Masalan, Abu Said Xalil ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Xalil ibn Muso ibn Osim ibn Jang Sijziy. U Samarqand shahar qozisi lavozimida faoliyat olib borgan (Nasafiy, 1991:33–34).

6. Mashhur muhaddislar. Masalan, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurahmon ibn Bahrom ibn Abdusamad Dorimiy haqida yozar ekan, nihoyatda aqlli, ziyrak, zohid, diyonatli, faqih, hofiz va mufassir bo‘lgani, Samarqandda hadis ilmini namoyon qilgan olim ekanini ta’kidlagan (Nasafiy, 1991:172).

7. Hadis rivoyat qilish bilan mashhur bo‘lgan oddiy shaxslar. Masalan, Abd ibn Anbar. U Samarqanddagi Bakriylar masjidi muazzini bo‘lgan (Nasafiy, 1991:318).

8. Muttavviin, ya’ni ko‘ngillilar. Imom Nasafiy yashagan davrda Samarqand musulmon yurtlar chegarasida joylashgan, moddiy va ma’naviy jihatdan boy shahar bo‘lgani tufayli doim tashqi kuchlarning xujumiga uchrab turgan. Bu esa uning chegaralarini

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

doimiy nazoratda va kuchli himoya ostida ushlab turishni taqozo qilgan. Shuning uchun u yerga islom olamining turli hududlaridan ko‘ngillilar kelib, chegaralar daxlsizligini ta’minlashda faol ishtirok etgan. «Al-Qand» asarida ular «muttavviin» (مُطَوِّعِين) shaklida tilga olinadi. Mashhur «Chokardiza» qabristonining o‘rnida bo‘lgan bog‘ egasi (Abu Tohir xoja, 1991:37) Ibrohim ibn Shammos Samarqandiy ana shunday muttavviinlardan biri sifatida tilga olinadi (Nasafiy, 1991:187).

9. Turli kasb-kor egalari. X–XII asrlarda Movarounnahrda, xususan, Samarqandda hadis ilmi bilan turli tabaqa va kasb-kordagi kishilar shug‘ullangan. Abu Hafs Nasafiy o‘z asarida 50 dan oshiq kasb egalari nomlarini keltiradi. Ular orasida solor, sayyid, bazzoz, voiz, adib, qori, munozir, muabbir, faqih, mudarris, muallim, muzakkir, fozil, shayx, jalil, ajall, hoji, rais, imom-xatib, muazzin, simsor, tojir (tijoratchi), varroq, favokihiy (mevafurush), farro’ (terichi), abbor, qatton, kotib, xaffof (maxsido‘z), najjor, g‘azzol, saffor, tabib, muaddib, zohid, sufiy, vara, muttaqiy, nosiq, obid, olim, sohib jaysh (harbiy), fotih, g‘oziy, muq’id kabi kishilar bor edilar (Rahimjonov, 2020:95).

Imom Nasafiy asarni yozishda shaharlar tarixiga doir manbalardan «Tarix Bag‘dod», «Tarix Jurjon», «Tarix Qazvin», «Tarix Dimashq» va shu singari kitoblarda amal qilingan uslubdan chetga chiqmagan. YA’ni, ularda tarjimai holi yoziladigan shaxsning ismi, kunyasi, laqabi, sifatlari, nasabi, nisbasi, tug‘ilgan va vafot etgan joyi, ustozlari, shogirdlari, keyin rivoyat qilgan xabarlari bayon qilingan. Imom Nasafiy ham «al-Qand» asarini yozishda asosan shunday yo‘l tutgan.

Asar Samarqand tarixiga doir bo‘lgani uchun tarjimai holi yozilayotgan shaxsning mazkur shaharga aloqador jihatlari muallif tomonidan ochiqchasiga yoki ishora tarzida ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, uning samarqandlik ekani yoki u yerda bir muddat yashagani yo vafot etgani va hokazolar.

Imom Nasafiy tarjimai holi yozilayotgan shaxsdan yoki uning sanadi bilan rivoyat qilingan bittagina hadis yo xabar bilan kifoyalangan. Tarjimai hollarni o‘zi yozgan yoki u zikr qilayotgan shaxs tomonidan yozilgan she’r bilan yakunlagan o‘rinlar ham talaygina.

Asar qomusiy uslubda va alifbo tartibiga ko‘ra boblarga ajratib yozilgan. Shunday bo‘lsa-da, ismning ikkinchi va undan keyingi harflari borasida bu tartibga rioya qilinmagan o‘rinlar ham uchraydi. Masalan, Bilol ismi Bishrdan, Tamim ismi Tamomdan oldin zikr qilingan. Har bir bobda ismi o‘sha harf bilan boshlanadigan mashhur shaxsning tarjimai holi keltirilgan o‘rinlar mavjud. Masalan, «shin» harfi bilan boshlanadigan ismlar bobida Shaqiq Balxiyning, «fa» harfi bilan boshlanadigan ismlar bobida Fuzayl ibn Iyozning tarjimai holi berilgan.

Muallif «al-Qand» asarida bayon qilgan tarjimai hollarni o‘rganib chiqqan holda aytish mumkinki, u o‘zi ta’riflayotgan shaxslarning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratgan:

1. Gapni ular tanilgan kunyalardan boshlagan. Bunga misollar juda ko‘p uchraydi. Masalan, Abu Is’hoq, Abu Ibrohim, Abu Nasr, Abu Azhar, Abu Hafs va hokazolar.

2. Ba’zan tarjimai holi berilayotgan shaxsning ismi va nisbasini qisman, ba’zan to‘liq bergan. Masalan, Abu Is’hoq Ibrohim ibn Ismoil ibn Is’hoq ibn Ahmad ibn Shish ibn Nasr ibn Shish ibn Hakam ibn Aflaz ibn Ibon ibn Uqba ibn Yazid ibn Raviyya ibn Xafoja ibn Voil ibn Haysam ibn Zubyon ibn Zabia ibn Nizor ibn Maad ibn Adnon Ansoriy Saffor Buxoriy.

3. Ba’zan shaxslarning qisqacha nisbasini keltirish bilan cheklangan. Masalan, Ibrohim Kadudiy, Xalaf ibn Devoshtaj, Zakdon Samarqandiy kabi.

4. Ba’zi o‘rinlarda shasxlarning faqat ismi berilgan, kunyasi yoki laqabi zikr qilinmagan. Masalan, Dovud ibn Abbos ibn Hoshim ibn Abu Javr, Ali ibn Muhammad ibn Baxt ibn Shor ibn Ma’bad ibn Yazid ibn Muhallab ibn Abu Sufra Marvaziy va Ali ibn Hasan ibn Hamd ibn Imron Samarqandiy.

5. Ba’zi hollarda shaxslarning ismini yozib o‘tgan, xolos. Ular haqida batafsil so‘z yuritmagan. Abdulloh ibn Umar ibn Ofuroni, Abdulloh ibn Muhammad Muaddil Nasafiy, Umar ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Hasan ibn Shohin Forisiy.

6. Ba’zi ulamolarning manbalarda mashhur nomlarining barchasini bayon qilib o‘tgan. Masalan, sayyid, ulug‘ imom, sadrulislom val muslimin, qutbul imomat fil olamin, maliki ulamoi Sharq va Chin, Abulmakorim Ashraf ibn Muhammad ibn Abu Shujo’ Muhammad ibn Ahmad ibn Hamza ibn Hasan kabi.

7. Tarjimai holi yozilayotgan ayrim ulamolarning shakl-shamoyili, axloqiy sifatlari, ilm sohasidagi o‘ziga xos jihatlaridan iborat ba’zi sifatlarini ham bayon qilib o‘tgan. Masalan, Dovud ibn Mixroq Foryobiy haqida:«Samarqandga kelgan. Soqoli siyrak, tishlari to‘kilgan, bo‘yi uzun va ozg‘in kishi bo‘lgan. Nasr ibn Jobir rabotida odamlarga hadis aytgan», deb yozgan.

8. Tarjimai holi yozilayotgan shaxsning tavallud sanasini yozish uslubi ham o‘ziga xos. Zero, Imom Nasafiy ba’zan uning tug‘ilgan kuni, oyi va sanasini yozadi. Masalan, Abdurashid ibn Ahmad ibn Tohir ibn Ivaz ibn Ali ibn Abdulqohir Tohiriy Samarqandiyning tug‘ilgan vaqti haqida:«U 453/1061 yil jumodul oxir oyida juma kuni tug‘ilgan», degan. Ba’zan tug‘ilgan kun, oy, sana va joy nomini ham qayd etib o‘tgan.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Masalan, Abdulloh ibn Qoid ibn Uqayl ibn Husayn ibn Ahmad ibn Ali ibn Ahmad ibn Ibrohim ibn Muhammad ibn Hamza haqida:«U 461/1069 yil jumodul uvlo oyining o‘ninchisida, shanba kuni Axsikatda tug‘ilgan», deb yozgan.

Imom Nasafiy tarjimai holi yozilayotgan olimlarning tug‘ilgan oyi va sanasini yoki faqat sananing o‘zini qayd etish bilan kifoyalangan o‘rinlar ham uchraydi. Ahamiyatlisi shundaki, ba’zi ulamolarning tavallud sanasini ma’lum bir tarixiy voqea-hodislar, masalan, qaysidir jang sanasi, islom tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxslardan birining vafot sanasi kabilar bilan bog‘lab zikr qilgan. Jumladan, Hofiz Abdulloh ibn Abdurahmon ibn Bahrom ibn Abdusamad Dorimiy xususida bunday yozgan:«U Abdulloh ibn Humayd Samarqandga voliy bo‘lib kelgan kechada tug‘ilgan. Shu sabali unga Abdulloh deb ism qo‘yilgan. Bu Ibn Muborak vafot etgan sanaga, ya’ni 182/798 yilga to‘g‘ri keladi».

9. Tarjimai holi yozilayotgan olimlarning vafot etgan sanasini bayon qilishda o‘ziga xos uslub qo‘llagan. Ya’ni, bu borada turli iboralardan foydalangan. Zero, ba’zilarida, masalan, Salm ibn Hafs Fazoriy Samarqandiy tarjimai holida «211/826-yili vafot etgan», deb aytganidek, faqat vafot etgan sananing o‘zini aytib o‘tgan. Ba’zilarida esa «yo» bog‘lovchisini qo‘llash orqali ikkita sanani aytib o‘tgan. Bu esa Imom Nasafiyda mazkur olimning vafot etgan sanasi haqida aniq ma’lumot yo‘qligini ko‘rsatadi. Masalan, Abu Solih Xalaf ibn Muhammad ibn Ismoil Xayyom Buxoriy haqida bunday yozgan:«Abu Solih Xalaf ibn Muhammad 361/981-yil oxiri yoki 362/982 yil boshida Buxoroda vafot etgan». Olimning vafot etgan aniq sanasi ma’lum bo‘lmagan o‘rinlarda Imom Nasafiy «... dan oldin vafot etgan» yo «...dan keyin vafot etgan» singari iboralarni qo‘llagan. Abdulloh ibn Muhammad ibn Amr ibn Muhammad ibn Hoshim G‘ubdiniy Kotib haqida «Otasi bilan Buxoroda istiqomat qilgan. 420/1029 yildan keyin o‘sha yerda vafot etgan», Iso ibn Muso ibn G‘avdam Kushoniy haqida «350/961 yildan oldin vafot etgan», deb yozgani bunga misoldir.

10. Tarjimai holi yozilayotgan olimning qanday kasb egasi bo‘lganini ham bayon qilib o‘tgan o‘rinlar mavjud. Jumladan, Xalaf ibn Shohid ibn Hasan ibn Hoshim Nasafiy haqida:«302/914-yili u yerda (Samarqandda) xabarchi vazifasida ishlagan», Abdulloh ibn Yahyo ibn Muso ibn Dovud ibn Ali ibn Ibrohim Saraxsiy haqida:«Avval Tabariston, so‘ngra Nasaf qozisi bo‘lgan», Abduljabbor ibn Husayn ibn Muhammad Bohiliy Kushoniy haqida:«Dor al-juzjoniyada mudarrislik qilar edi», deb yozgan.

11. Tarjimai holi yozilayotgan olimning asli qayerlik va qayerda istiqomat qilganini bayon qilgan. Ali ibn Yusuf ibn Muhammad Biykasiy haqida «Ishtixonga qarashli hududlardan biri Biykasdan», Abdulvahhob ibn Ash’as ibn Nasr ibn Savra ibn Arafa ibn Yasor Hanafiy Tamimiy haqida «Samarqanddan uch farsax masofada joylashgan Daxtanaviy qishlog‘idan», degan so‘zlari bunga misoldir.

Imom Nasafiy «al-Qand» asarida bayon qiladigan tarjimai hollarni alifbo tartibida bergan bo‘lsa-da, bu tartibga rioya qilinmagan o‘rinlar ham uchraydi. Masalan, ismi «ayn» harfi bilan boshlanadigan roviylar bobida gapni «Abdulloh» ismli shaxslardan boshlagan. Keyin «Abdurahmon», so‘ng «Abdurahim», keyin «Abdulmalik», undan keyin esa «Abdulxoliq» ismli shaxslarning tarjimai holini bayon qilgan.

Imom Nasafiy tarjimai hollarni qanday shaklda taqdim qilganiga to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo, uning nasabini, so‘ng tug‘ilgan va vafot etgan sanasini, so‘ngra rivoyat qilgan hadisi yoki xabarini uning sanadidagi roviylar bilan bayon qilgan. Ba’zi hollarda ayrim shaxslarning tarjimai holiga uzoq to‘xtalganini, hatto bir necha sahifani ajratganini ko‘rish mumkin. Masalan, ismi «qof» harfi bilan boshlanadigan roviylar bobida Nabiy alayhissalomning amakivachchalari Abu Ja’far Qusam ibn Abbos ibn Abdulmuttalibning tarjimai holida shunday yo‘l tutgan. YA’ni, uning hayotini yoritib berish uchun qariyb besh sahifadan iborat ma’lumot keltirgan.

Imom Nasafiy asli Nasaf shahridan yoki uning yon-atrofidagi qishloqlardan bo‘lgan ulamolarning tarjimai holiga alohida e’tibor bergan. Shuningdek, asardagi boblarning hajmi va ularda bayon qilingan tarjimai hollarning soni ham turlichadir. Eng ko‘p tarjimai hollar ismi «ayn» harfi bilan boshlanadigan roviylar bobiga to‘g‘ri keladi. Boblarning hajmida tafovut borligi asar qo‘lyozmasining ayrim sahifalari yo‘qolgani yoki noma’lum sabablarga ko‘ra xattot tarafidan e’tiborsizlikka yo‘l qo‘yilgani tufayli bo‘lishi ham mumkin.

MUHOKAMA

«Al-Qand» asarining yagona nusxasi bugungi kunda Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasiningg «Turhanvalde» fondida 70-raqam ostida saqlanmoqda. U 198 varaqdan iborat bo‘lib, suls xatida va harflarning harakati bilan yozilgan. Boshidan olti va oxiridan ham olti bob yo‘q. Unda 1010 nafar atoqli shaxsning tarjimai holi bayon qilingan. Ba’zi o‘rinlarda birdan ortiq ulamoning tarjimai holi berilgani inobatga olinadigan bo‘lsa, ularning soni 1027 tani tashkil etadi. Qo‘lyozma ismlari «xo» harfi bilan boshlanadigan roviylar haqidagi bobdan boshlangan.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Ayrim tadqiqotchilar Parij Milliy kutubxonasida arab tilidagi qo‘lyozmalar fondida 6284 raqami ostida saqlanayotgan bir qo‘lyozmaga «al-Qand»ning ikkinchi va to‘liqroq nusxasi sifatida ta’rif bergan. Hatto 1999-yilda livanlik tadqiqotchi Yusuf Hodiy mazkur asarning tanqidiy matnini yaratishga uringan (Nasafiy, 1999). Noshir bu ishni amalga oshirishda ikki qo‘lyozma – Istanbul va Parij nusxalaridan foydalangan.

Ammo aksariyat ulamolar aniq ilmiy dalillarga asoslangan holda Parij kutubxonasidagi qo‘lyozma «al-Qand»ga tegishli emas, balki Imom Nasafiyning shogirdi Abu Fazl Muhammad ibn Abduljalil Samarqandiy qalamiga mansub «Muntaxab al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» asaridir, degan fikrni ilgari surgan. «Muntaxab»da Samarqandda yashagan yoki u yerga kirib o‘tgan 1200 dan ziyod roviy, muhaddis, tobein va amirning tarjimai hollari qamrab olingan. Uning ahamiyati shundaki, u Samarqanddagi ilmiy-madaniy hayot haqida ma’lumot beruvchi eng nodir manba hisoblanadi. Bundan tashqari, u «al-Qand»ning katta qismi yo‘q bo‘lib ketgani sababli, undagi asosiy ma’lumotlardan aksariyatini o‘zida mujassam qilgani bilan ham qimmatlidir. Binobarin, Parij kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma «Muntaxab al-qand fi zikri ulamoi Samarqand»ning yagona nusxasidir.

«Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari 1991-yilda dastlab Nazar Muhammad Foryobiy tomonidan chop qilingan (Nasafiy, 1991). Tadqiqotchilar, jumladan, qo‘lyozmani Istanbul va Parij nusxalaridan foydalangan holda tahqiq va nashr qildirgan Yusuf Hodiy, 2003-yilda «Kitob al-qand fi ma’rifat ulamoi Samarqand» bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan tadqiqotchi Durbek Rahimjonov oldingi ikki nashrga tanqidiy yondashgan, Istanbul va Parij nusxalaridan foydalangan holda 2021-yilda uni ikki jildda nashr qilgan Muhammad Yahyo Ismoil, Muhannad Yahyo Ismoil va boshqalar bu nashrni «al-Qand»ning kashf qilinishidagi ilk yangilik sifatida e’tirof etgan bo‘lsa-da, asar bilan bog‘liq barcha ilmiy tadqiqotlar hisobga olinmaganini tanqid ostiga olgan. U jiddiy kamchiliklardan xoli emasligi, Istanbul va Parij nusxalari qiyoslanmagani, Istanbul nusxasining Parij qo‘lyozmasidan foydalangan holda o‘qilishi mumkin bo‘lgan noaniq va noqis so‘zlar hamda jumlalar bu nashrda noto‘g‘ri ketganini ta’kidlagan.

1999-yilda Yusuf Hodi tomonidan tahqiq va chop qilingan ikkinchi nashr oldingisidan yaxshiroq chiqqan bo‘lsa-da, ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan u ham qoniqarli emas deb baholangan. Marfu’ hadislar muhaqqiqning xatosi tufayli mavqufga aylanib qolgani, ayrim shaxslarning ismlari noqis berilgani va boshqa kamchiliklari uni mukammallik darajasidan tushirib qo‘ygani ta’kidlangan. Qolaversa, unda Imom Nasafiyning «al-Qand» asari Abu Fazl Samarqandiyning «Muntaxab al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari bilan qo‘shib yuborilgani, uni nashr qilishdan oldin avvalgi olimlarning Parij qo‘lyozmasi haqidagi ilmiy asoslangan xulosalaridan xabardor bo‘lmagani, hatto ularni inkor qilgani ta’kidlangan.

«Al-Qand» asarining 2021-yilda Muhammad Yahyo Ismoil va Muhannad Yahyo Ismoil hamkorligida tahqiq qilingan va ikki jildda chop etilgan nashriga (Nasafiy, 2021:II) to‘xtaladigan bo‘lsak, u avvalgi nashrlarga qaraganda ilmiy jihatdan mukammalroq tayyorlangan. Joy nomlari, shaxslarning ismlari va nisbalarini aniqlashtirishda asosan Sam’oniy va Hamaviyning asarlariga tayanilgan. Imom Nasafiy keltirgan hadislarning manbalari va darajasi kitobning izohlar qismida ko‘rsatib o‘tilgan. Eng e’tiborlisi shuki, qo‘lyozmaning ikkala nusxasi qiyosiy o‘rganilgan holda ish ko‘rilgan. Bu, albatta, ilmiy-tanqidiy matnning mukammal bo‘lishini ta’minlagan. Zero, Abu Fazl Samarqandiyning «Muntaxab al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari «al-Qand»ning muxtasar shakli ekani inobatga olinsa, bu fikr to‘g‘riligi yanada oydinlashadi.

Shuncha yutuqlari borligiga qaramasdan, bu nashrda ham ba’zi bir kamchiliklar uchraydi. Eng asosiy xato – bu Abu Fazl Samarqandiyning Parij kutubxonasidagi «Muntaxab al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» asarining qo‘lyozmasi «al-Qand» asarining ikkinchi nusxasi sifatida taqdim etilishidir. Buning dalili sifatida tadqiqotchilar tomonidan quyidagi fikrlar ilgari surilgan:«Chamasi Parij nusxasi («al-Qand» asarining) dastlabki (qoralama) nusxasi bo‘lib, musannif keyinchalik unga qo‘shimchalar kiritgan. Buning dalili shuki, hadis keltirilmagan va mukammal bo‘lmagan ko‘pgina tarjimai hollar Istanbul nusxasida (to‘lig‘icha) mavjuddir. Shuningdek, Abul Yusrning tarjimai holidan bir qismini bayon qilib bo‘lganidan so‘ng, (Imom Nasafiy):«U rivoyat qilgan hadis otasining tarjimai holi bayon qilingan o‘rinda o‘tdi», degan. Vaholanki, otasining tarjimai holini bayon qilish asnosida kelgan hadis Istanbul nusxasida kelgan tarjimai holda berilgan hadisdan farq qiladi. Bu tarjimai holda undan keyin keladigan iboralar o‘sha nusxadan tushib qolgan» (Nasafiy, 2021:I, 68).

«Al-Qand » asari 2001-yilda Usmonxon Temurxon o‘g‘li va Baxtiyor Nabixon o‘g‘li tomonidan qisqartirilgan va o‘zbekcha tarjimai qilingan holda «Kitob al-qand» nomi ostida ommabop uslubda nashr qilingan (Nasafiy, 2001). Natijada faqat o‘zbek tilida o‘qiy oladigan keng kitobxonlar ommasi bu kitob bilan qisman bo‘lsa-da tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ammo u Istanbul qo‘lyozmasining Nazar Muhammad

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Foryobiy tomonidan amalga oshirilgan nashriga asoslangani uchun mazkur nashrda yo‘l qo‘yilgan xatolar unda ham takrorlangan.

O‘zbekistonda «al-Qand » asarining to‘liq tarjimasini tayyorlash bo‘yicha loyihani boshlandi. Loyiha doirasida kitob o‘zbek tiliga tarjima ham qilindi. Kitobni tarjima qilishda bevosita uning Istanbul kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozmasiga tayanildi. Bunda ulamolarning Parij kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma Abu Fazl Samarqandiyning «Muntaxab al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari yagona nusxasidir, degan qarashlari ilmiy jihatdan asosli deb topildi. Joy nomlari, ismlar va nisbalar Sam’oniy yoki Hamaviy asarlarida kelgan shakldan farq qilgan o‘rinlarda bularning yozgani qabul qilindi. Ularning Imom Nasafiy bilan zamondoshligi, asarda kelgan shayxlarning aksariyati haqida bevosita yo bilvosita ma’lumotga egaligi va boshqa jihatlar shunday yo‘l tutishga asos bo‘ldi. Joy nomlari, ismlar va nisbalarning qo‘lyozmada berilgan shakliga ehtimol xattot xatoga yo‘l qo‘ygan, degan xulosaga kelindi.

Asarni tarjima qilish asnosida joy nomlari va shaxslarning ismlari bilan bog‘liq masalalarga aniqlik kiritishda Abdulkarim Sam’oniyning «al-Ansob» asari asosiy manba qilib olindi. Zero, Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur ibn Muhammad Sam’oniy 1112-yil Marvda tug‘ilgan va 1166-yilda vafot etgan. Umrining o‘spirinlik yillarini shayxlar bilan uchrashish, ulardan ilm va hadis eshitish, ular bilan bog‘liq voqea-hodisalarni qayd etib borish maqsadida shahar va qishloqlarni kezgan. Uning «Mu’jam shuyux Abi Sa’d Sam’oniy» nomli kitobining asli bugunga qadar topilmagan asarlardan biri sanaladi. Lekin uning kattagina qismi «al-Muntaxab fi mu’jam shuyux al-imom al-hofiz Abi Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oniy» nomli asarida saqlanib qolgan, deb aytish mumkin. Eng e’tiborli jihati shundaki, Sam’oniy Imom Nasafiy bilan zamondosh bo‘lgan, Samarqandda sodir bo‘lgan ayrim voqea-hodislarning guvohi ham bo‘lgan. Hatto ulardan ayrimlarini o‘zining asarlarida naql ham qilgan. Imom Nasafiy vafot etishidan bir yil avval, ya’ni 1143-yil Samarqandda sodir bo‘lgan «Darg‘om»[1] voqeasi buning misollaridan biridir.

[1] Bu voqea tarixiy manbalarda «Qatvon urushi» nomi bilan mashhurdir. Bu jangda Sulton Sajar va Xuroson amirlari kuchli mag‘lubiyatga uchrab, qo‘shinlari Darg‘om vodiysi tomon chekinadi. Sulton Sanjar jang maydonidan qochib ketadi, bir guruh amirlar qatori uning ayoli ham dushman qo‘liga asir tushadi. Darg‘om vodiysida o‘ldirilgan va jarohat olganlar soni o‘ng ming nafarga yetgani. Ibn Asir, Ali ibn Muhammad. Al-Komil fi-t-tarix // Abdulloh Qozi tahqiqi, 3-nashr. – Bayrut:Dor al-kutub al-ilmiya, 1998. – J. 9. – B. 119.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Sam’oniy shu davrda yashagani, shayxlari, shayxlarining ustozlari tarjimai hollari va asarlariga alohida ahamiyat qaratgani va boshqa jihatlar inobatga olingani uchun ko‘proq uning asarlariga tayanildi.

Tarjima jarayonida keng foydalanilgan manbalardan yana biri – bu Yoqut Hamaviyning «Mu’jam al-buldon» asaridir. To‘liq ismi Yoqut Abu Abdulloh Shahobiddin Yoqub ibn Abdulloh Rumiy bo‘lmish bu olim 1179-yilda tavallud topgan mashhur sayyoh, geograf, adib va tarixchidir. U yigirma yoshidan Bag‘dod shahriga borib, ilm o‘rgangan. XIII asr boshida Marvda yashagan. 1213-yilda safarga chiqib, Suriya, Falastin, Misr, Iroq, Eron, Afg‘oniston, Arabiston yarimorolining janubiy mintaqalari, Movarounnahr kabi yurtlarda bo‘lib, geografiya, tarix, filologiya va etnologiyaga oid ma’lumotlarni to‘plab borgan.

Yoqut Hamaviy o‘nlab asarlar muallifi hisoblanadi. Shulardan biri o‘n to‘rt jildli toponimik asari «Mu’jam al-buldon» bo‘lib, uni 1224-yilda yozib tugatgan. U 1229-yil Halab shahrida vafot etgan.

«Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asarida kelgan hadislar taxrij qilindi. YA’ni, islom olamida mashhur hadis to‘plamlari va boshqa asarlar yordamida ularning manbalari, darajalari bayon qilindi. Imom Nasafiy hadislarning ishonchlilik yoki ishonchsizlik darajasi yuzasidan mas’uliyatni roviyning o‘ziga havola qilib qoldirgani kabi tarjimon tarafidan ham omonatdorlik nuqtai nazaridan xuddi shunday yo‘l tutish maqsadga muvofiq topildi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand» asari Samarqand va keng ma’noda Movarounnahrda shakllangan ilmiy muhitni o‘rganishda muhim va ko‘p qirrali manba ekanini ko‘rsatadi. Asarda keltirilgan biografik, hadisshunoslik, geografik, toponimik ma’lumotlar Samarqandning islom ilmlari taraqqiyotidagi o‘rnini nafaqat mahalliy, balki mintaqalararo ilmiy jarayonlar kesimida tadqiq etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, Samarqand VIII–XII asrlar davomida hadis, fiqh va kalom kabi islom ilmlari rivojlangan, turli hududlardan olim va talabalar jalb etilgan yirik ilmiy-madaniy markazlardan biri bo‘lgan. Jome masjidlari, madrasalar, xonadonlardagi ilm halqalari hamda hukmdorlar saroylarida kechgan ilmiy munozaralar shaharda barqaror va ko‘p tarmoqli ilmiy muhit shakllanganini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, Samarqand ilmiy maktabini faqat alohida olimlar

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

faoliyati bilan emas, balki ta’lim, munozara va ustoz-shogird munosabatlariga asoslangan yaxlit ilmiy tizim sifatida baholash mumkin.

«Al-Qand»ning biografik mazmuni mazkur ilmiy muhitning ijtimoiy qamrovi ham nihoyatda keng bo‘lganini ko‘rsatadi. Asarda ulamolar va mashhur muhaddislar bilan bir qatorda sayyidlar, hukmdorlar, ma’muriy idora xodimlari, qozi va boshqa diniy mansabdorlar, turli kasb egalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Abu Hafs Nasafiy tarjimai hollarni bayon etishda shaxslarning nasabi, nisbasi, tug‘ilgan va vafot etgan joyi, ustozlari, shogirdlari, kasb-kori, Samarqand bilan aloqasi va rivoyat qilgan xabarlariga e’tibor qaratgan. Bu xususiyatlar «al-Qand»ni nafaqat hadis va biografiya, balki o‘rta asrlarda Samarqand ijtimoiy va madaniy hayotini o‘rganish uchun ham qimmatli manbaga aylantiradi. Asardagi ma’lumotlar Samarqand ilmiy maktabining boshqa mintaqalar bilan uzviy ilmiy aloqalarda rivojlanganini ham ko‘rsatadi. Samarqandlik muhaddislarning Buxoro, Nasaf, Xuroson, Iroq, Shom va Hijoz kabi markazlarga safarlari, mazkur hududlar olimlarining Samarqandga kelib ilm tarqatgani, shuningdek, ustoz-shogird munosabatlarining keng geografik qamrovi Movarounnahr ilmiy muhitini islom olamining umumiy ilmiy makonidan ajratib qarash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Abu Hafs Nasafiyning o‘zi 550 nafar shayxdan ta’lim olgani haqidagi ma’lumot ham ushbu ilmiy tarmoqlarning ko‘lami va murakkabligini yaqqol namoyon etadi.

«Al-Qand»ning yana bir muhim ilmiy ahamiyati shundaki, asarda Samarqand shahrining tuzilishi, ko‘chalari, mahallalari, qishloqlari, masjidlari, rabotlari, qabristonlari, ziyoratgohlari va boshqa geografik obyektlari haqidagi ma’lumotlar saqlangan. Ayniqsa, «Chokardiza» qabristoni va unda ulamolarning maxsus dafn hududlari haqidagi xabarlar Samarqandning o‘rta asrlar qiyofasini tiklashda alohida ahamiyat kasb etadi. Chokardiza tarixiy qabristoni hududida 2025-yilda amalga oshirilgan arxeologik qazishma ishlari xulosalari ushbu ma’lumotlar ahamiyati yuqori ekanini ko‘rsatdi. Shu jihatdan, «al-Qand» ma’lumotlari matnshunoslik va biografik tadqiqotlar bilan bir qatorda tarixiy arxeologiya va shahar topografiyasi uchun ham muhim ilmiy asos bo‘la oladi.

Shunday qilib, «al-Qand»ni faqat Samarqand ulamolarining tarjimai hollari jamlangan biografik asar sifatida baholash uning ilmiy imkoniyatlarini to‘liq qamrab olmaydi. Asar Movarounnahrdagi ilmiy maktablarning shakllanishi, ularning ichki tuzilishi, ustoz-shogird aloqalari, boshqa ilmiy markazlar bilan o‘zaro munosabatlari, Samarqandning ijtimoiy-madaniy hayoti, tarixiy toponimikasini kompleks tadqiq etish uchun muhim manba vazifasini bajaradi. Unda keltirilgan ma’lumotlar Samarqandning islom ilmlari tarixida chetdagi hudud emas, balki ilmiy harakatlarni rivojlantirgan markaziy nuqta bo‘lgani, o‘zining barqaror ilmiy an’analari va olimlar silsilasini shakllantirgan muhim markazlardan ekanini ko‘rsatadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Tohirxoja Samarqandiy. (1991). Samariya (B. Ahmedov va boshq., Eds.). Kamalak.
2. Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloniy. (1971). Lison al-mezon (Dor al-maorif an-nizomiya, Ed.; Vol. 4). Muassasa al-a’lamiy.
3. Ismoil ibn Muhammad Amin ibn Mir Salim Bag‘dodiy. (1951). Hadiyat al-orifin (Vol. 1). Vakolat al-maorif al-jalila.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2008). Boburnoma. O‘qituvchi.
5. Muhammad ibn Ali Dovudiy. (n.d.). Tabaqot al-mufassirin (Vol. 2). Dor al-kutub al-ilmiya.
6. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. (1985a). Siyar a’lom an-nubalo (Husayn Asad, Shuayb Arnaut va boshq., Eds.; Vol. 20). Muassasa ar-risola.
7. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. (1985b). Al-Ibar fi xabar man g‘abar (Abu Hojar Muhammad Said ibn Basyuniy Zag‘lul, Ed.; Vol. 2). Dor al-kutub al-ilmiya.
8. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. (2003). Tarix al-islom va vafayot al-mashohir va-l-a’lom (Bashshor Avvod Ma’ruf, Ed.; Vol. 11). Dor al-g‘arb al-islomiy.
9. Xayriddin Zirikli. (1992). Al-A’lom (Vol. 5). Dor al-ilm li-l-malayin.
10. Abdulhay ibn Ahmad ibn Imod Hanbaliy. (1986). Shazarot az-zahab fi axbor man zahab (Mahmud Arnaut, Ed.; Vol. 5). Dor Ibn Kasir.
11. Mahmud ibn Ahmad ibn Moza. (2004). Al-Muhit al-burhoniy fi-l-fiqh an-nu’moniy (Abdulkarim Somiy Jundiy, Ed.; 1st ed., Vol. 3). Dor al-kutub al-ilmiya.
12. Muborak ibn Ahmad ibn Muborak ibn Mustavfiy. (1980). Tarix Irbil (Somiy ibn Sayyid Xumos Saqqor, Ed.; Vol. 2). Dor Rashid.
13. Muhammad ibn Mahmud ibn Najjor. (1996). Zayl Tarix Bag‘dod (Mustafo Abdulqodir Ato, Ed.). Dor al-kutub al-ilmiya.
14. Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad Istarxiy. (2019). Kitob al-masolik va-l-mamolik. Fan.
15. Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy. (1993). Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya (Abdulfattoh Muhammad Hilv, Ed.). Dor hijr.
16. Abulhasanot Muhammad Abdulhay Laknaviy. (1906). Al-Favoid al-bahiya. Dor Saodat.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

17. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Maqdisiy. (1991). Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim. Maktaba Madbuliy.
18. Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy. (1991). Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand (Nazar Muhammad Foryobiy, Ed.). Maktaba al-kavsar.
19. Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy. (1999). Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand (Yusuf Hodiy, Ed.; 1st ed.). Oynai meros.
20. Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy. (2001). Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand (Usmonxon Temurxon o'g'li & Baxtiyor Nabixon o'g'li, Trans.). O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
21. Hofiz Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy Samarqandiy. (2021). Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand (Muhammad Yahyo Ismoil & Muhannad Yahyo Ismoil, Eds.; Vols. 1–2). Al-Maktaba al-hoshimiya.
22. Nosir ibn Abdulkarim Aql. (2001). Al-Firaq al-kalomiya: Al-mushabbiha, al-asha'ira, al-moturidiya. Dor al-vatan li-n-nashr.
23. Durbek Rahimjonov. (2020). Abu Hafs Nasafiy va uning «Kitob al-qand» asari. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi.
24. Abu Fazl Muhammad ibn Abduljalil Samarqandiy. (n.d.). Muntaxab kitob al-Qand fi ma'rifat ulamoi Samarqand [Manuscript, No. 6284]. Fransiya milliy kutubxonasi, arab qo'lyozmalari fondi, Parij.
25. Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oniy. (1962). Al-Ansob (Abdurahmon Yamoniy va boshq., Eds.). Majlis doira al-maorif al-usmoniya.
26. Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oniy. (1975). Kitob at-tahbir fi-l-mu'jam al-kabir (Munira Nojiy Solim, Ed.; Vol. 1). Devon al-avqof.
27. Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. (1976). Tabaqot al-mufassirin al-ishrin (Muhammad Umar, Ed.). Maktaba Vahba.
28. Süleymaniye Kütüphanesi. (n.d.). Turhanvalde fondi, № 70 raqamli qo'lyozma nusxasi [Manuscript]. Istanbul.
29. Ahmad ibn Ali Xatib Bag'dodiy. (1997). Tarix Bag'dod (Mustafo Abdulqodir Ato, Ed.; Vol. 20). Dor al-kutub al-ilmiya.
30. Yoqut ibn Abdulloh Rumiy Hamaviy. (1993). Mu'jam al-udabo (Ehson Abbos, Ed.; 1st ed.). Dor al-g'arb al-islomiy.
31. Abu Abdulloh Yoqut ibn Abdulloh Rumiy Hamaviy. (1995). Mu'jam al-buldon (Vol. 3). Dor Sodir.
32. Osman Aydınlı. (2001). Fethinden Sâmânîler'in yıkılışına kadar (93–389 / 711–999) Semerkant tarihi [Doctoral dissertation]. Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
33. Shams al-Din Muhammad ibn Ahmad al-Dhahabi. (1985a). Siyar aʿlam al-nubala (Shuayb al-Arnaut, Ed.; Vol. 12). Muʾassasat al-Risala.
34. Ali ibn al-Hasan ibn Asakir. (1995). Tarikh madinat Dimashq (Muhibb al-Din al-Amrawi, Ed.; Vol. 52). Dar al-Fikr.
35. Abu al-Qasim Muhammad ibn Hawqal. (2011). Kitab Surat al-Ard. Tashkent.
36. Muhammad ibn Ahmad al-Muqaddasi. (1906). Ahsan al-taqasim fi maʿrifat al-aqalim. Brill.
37. Muhammad ibn Ahmad al-Muqaddasi. (1994). The best divisions for knowledge of the regions (Basil Collins, Trans.; Mohammad Hamid Altaʾi, Rev.). Garnet Publishing.
38. Najm al-Din Umar ibn Muhammad al-Nasafi. (1991). Kitab al-Qand fi dhikr ulama Samarqand (Nazar Muhammad al-Faryabi, Ed.). Maktabat al-Kawthar.
39. Najm al-Din Umar ibn Muhammad al-Nasafi. (2021). al-Qand fi dhikr ulama Samarqand (Muhammad Yahya Ismail & Muhannad Yahya Ismail, Eds.). Markaz al-Hashimiyya. (Original work published 1443 AH)
40. Abd al-Qadir ibn Muhammad al-Qurashi. (1993). al-Jawahir al-mudiyya fi tabaqat al-Hanafiyya (Abd al-Fattah Muhammad al-Hulw, Ed.). Hijr.
41. Abu Saʿd Abd al-Karim ibn Muhammad al-Samʿani. (1998). al-Ansab (Abd Allah Umar al-Barudi, Ed.). Dar al-Fikr.

REFERENCES

1. Abu Tohirxoja Samarqandiy. (1991). *Samariya* (B. Ahmedov va boshq., Eds.). Kamalak.
2. Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloniy. (1971). Lison al-mezon (Dor al-maorif an-nizomiya, Ed.; Vol. 4). Muassasa al-a'lamiy.
3. Ismoil ibn Muhammad Amin ibn Mir Salim Bag'dodiy. (1951). Hadiyat al-orifin (Vol. 1). Vakolat al-maorif al-jalila.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2008). Boburnoma. O'qituvchi.
5. Muhammad ibn Ali Dovudiy. (n.d.). Tabaqot al-mufassirin (Vol. 2). Dor al-kutub al-ilmiya.
6. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. (1985a). Siyar a'lom an-nubalo (Husayn Asad, Shuayb Arnaut va boshq., Eds.; Vol. 20). Muassasa ar-risola.
7. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. (1985b). Al-Ibar fi xabar man g'abar (Abu Hojar Muhammad Said ibn Basyuniy Zag'lul, Ed.; Vol. 2). Dor al-kutub al-ilmiya.
8. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. (2003). Tarix al-islom va vafayot al-mashohir va-l-a'lom (Bashshor Avvod Ma'ruf, Ed.; Vol. 11). Dor al-g'arb al-islomiy.
9. Xayriddin Zirikli. (1992). Al-A'lom (Vol. 5). Dor al-ilm li-l-malayin.
10. Abdulhay ibn Ahmad ibn Imod Hanbaliy. (1986). Shazarot az-zahab fi axbor man zahab (Mahmud Arnaut, Ed.; Vol. 5). Dor Ibn Kasir.
11. Mahmud ibn Ahmad ibn Moza. (2004). Al-Muhit al-burhoniy fi-l-fiqh an-nu'moniy (Abdulkarim Somiy Jundiy, Ed.; 1st ed., Vol. 3). Dor al-kutub al-ilmiya.
12. Muborak ibn Ahmad ibn Muborak ibn Mustavfiy. (1980). Tarix Irbil (Somiy ibn Sayyid Xumos Saqqor, Ed.; Vol. 2). Dor Rashid.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

13. Muhammad ibn Mahmud ibn Najjor. (1996). Zayl Tarix Bag‘dod (Mustafo Abdulqodir Ato, Ed.). Dor al-kutub al-ilmiya.
14. Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad Istarxiy. (2019). Kitob al-masolik va-l-mamolik. Fan.
15. Abdulqodir ibn Muhammad Qurashiy. (1993). Al-Javohir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya (Abdulfattoh Muhammad Hilv, Ed.). Dor hijr.
16. Abulhasanot Muhammad Abdulhay Laknaviy. (1906). Al-Favoid al-bahiya. Dor Saodat.
17. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Maqdisiy. (1991). Ahsan at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim. Maktaba Madbuliy.
18. Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy. (1991). Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand (Nazar Muhammad Foryobiy, Ed.). Maktaba al-kavsar.
19. Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy. (1999). Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand (Yusuf Hodiy, Ed.; 1st ed.). Oynai meros.
20. Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy. (2001). Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand (Usmonxon Temurxon o‘g‘li & Baxtiyor Nabixon o‘g‘li, Trans.). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
21. Hofiz Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy Samarqandiy. (2021). Al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand (Muhammad Yahyo Ismoil & Muhannad Yahyo Ismoil, Eds.; Vols. 1–2). Al-Maktaba al-hoshimiya.
22. Nosir ibn Abdulkarim Aql. (2001). Al-Firaq al-kalomiya: Al-mushabbiha, al-asha’ira, al-moturidiya. Dor al-vatan li-n-nashr.
23. Durbek Rahimjonov. (2020). Abu Hafs Nasafiy va uning «Kitob al-qand» asari. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi.
24. Abu Fazl Muhammad ibn Abduljalil Samarqandiy. (n.d.). Muntaxab kitob al-Qand fi ma’rifat ulamoi Samarqand [Manuscript, No. 6284]. Fransiya milliy kutubxonasi, arab qo‘lyozmalari fondi, Parij.
25. Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oniy. (1962). Al-Ansob (Abdurahmon Yamoniy va boshq., Eds.). Majlis doira al-maorif al-usmoniya.
26. Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oniy. (1975). Kitob at-tahbir fi-l-mu’jam al-kabir (Munira Nojiy Solim, Ed.; Vol. 1). Devon al-avqof.
27. Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. (1976). Tabaqot al-mufassirin al-ishrin (Muhammad Umar, Ed.). Maktaba Vahba.
28. Süleymaniye Kütüphanesi. (n.d.). Turhanvalde fondi, № 70 raqamli qo‘lyozma nusxasi [Manuscript]. Istanbul.
29. Ahmad ibn Ali Xatib Bag‘dodiy. (1997). Tarix Bag‘dod (Mustafo Abdulqodir Ato, Ed.; Vol. 20). Dor al-kutub al-ilmiya.
30. Yoqut ibn Abdulloh Rumiy Hamaviy. (1993). Mu’jam al-udabo (Ehson Abbos, Ed.; 1st ed.). Dor al-g‘arb al-islomiy.
31. Abu Abdulloh Yoqut ibn Abdulloh Rumiy Hamaviy. (1995). Mu’jam al-buldon (Vol. 3). Dor Sodir.
32. Osman Aydınlı. (2001). Fethinden Sâmânîler’in yıkılışına kadar (93–389 / 711–999) Semerkant tarihi [Doctoral dissertation]. Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
33. Shams al-Din Muhammad ibn Ahmad al-Dhahabi. (1985a). Siyar aʿlam al-nubala (Shuayb al-Arnaut, Ed.; Vol. 12). Muʾassasat al-Risala.
34. Ali ibn al-Hasan ibn Asakir. (1995). Tarikh madinat Dimashq (Muhibb al-Din al-Amrawi, Ed.; Vol. 52). Dar al-Fikr.
35. Abu al-Qasim Muhammad ibn Hawqal. (2011). Kitab Surat al-Ard. Tashkent.
36. Muhammad ibn Ahmad al-Muqaddasi. (1906). Ahsan al-taqasim fi maʿrifat al-aqalim. Brill.
37. Muhammad ibn Ahmad al-Muqaddasi. (1994). The best divisions for knowledge of the regions (Basil Collins, Trans.; Mohammad Hamid Altaʾi, Rev.). Garnet Publishing.
38. Najm al-Din Umar ibn Muhammad al-Nasafi. (1991). Kitab al-Qand fi dhikr ulama Samarqand (Nazar Muhammad al-Faryabi, Ed.). Maktabat al-Kawthar.
39. Najm al-Din Umar ibn Muhammad al-Nasafi. (2021). al-Qand fi dhikr ulama Samarqand (Muhammad Yahya Ismail & Muhannad Yahya Ismail, Eds.). Markaz al-Hashimiyya. (Original work published 1443 AH)
40. Abd al-Qadir ibn Muhammad al-Qurashi. (1993). al-Jawahir al-mudiyya fi tabaqat al-Hanafiyya (Abd al-Fattah Muhammad al-Hulw, Ed.). Hijr.
41. Abu Saʿd Abd al-Karim ibn Muhammad al-Samʿani. (1998). al-Ansab (Abd Allah Umar al-Barudi, Ed.). Dar al-Fikr.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 10.11.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

“Standard Poligraf Service”
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.